



INNOVATIVE
WORLD

ILG'OR PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI



- EXACT
- NATURAL
- MEDICAL
- TECHNICAL
- ECONOMICS

- PHILOLOGICAL
- PEDAGOGICAL
- MILITARY
- SOCIAL SCIENCES
AND HUMANITIES



2025

Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998945668868



<https://innoworld.net>

INNOVATIVE
WORLD
ILG'OR PEDAGOG
RESPUBLIKA ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

2- JILD, 1 - SON

2025

Google Scholar

 [®] digital object
identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

FAKTORIALLAR HAQIDA TUSHUNCHA VA ULARNING TURLARI

Musayev Sardor Xabibulla o'g'li
Asadullayeva Mavluda Asadullo qizi
 FAN VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
 "Aniq fanlar" kafedrası o'qituvchisi
sardormusayev1999@gmail.com
lyudaasadullayeva01@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada faktoriallar va ularning turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlardan talabalar, shuningdek, abituriyentlar ham foydalanishlari mumkin. Olimpiada masalalarini hal qilish uchun ham bu foydali manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Faktorial, super faktorial, giperfaktorial, primefaktorial, subfaktorial.

KIRISH

Faktorial so'zi inglizcha "factos" so'zidan olingan bo'lib bo'lib, "ko'paytuvchi" degan ma'noni anglatadi. "Faktorial" atamasini esa dastlab, fanga fransuz matematigi va siyosatchi Antuan Argobast 1800-yilda, undan keyin esa 1 dan boshlab n gacha bo'lgan natural sonlar ko'paytmasini $n!$ ko'rinishida belgilashni 1808- yilda yana fransuz matematiklaridan biri Kristian Kramp taklif qilgan va amalda qo'llagan.

Faktorial asosan matematikaning kombinatorika, ehtimollar nazariyasi, sonlar nazariyasi va funksional analiz bo'limlarida ko'p ishlatiladi.

Ta'rif: 1 dan boshlab n gacha bo'lgan barcha natural sonlarning ko'paytmasiga n factorial deyiladi va $n!$ ko'rinishida belgilanadi.

Demak, $n! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot \dots \cdot n$.

Masalan: $3! = 1 \cdot 2 \cdot 3$, $5! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5$.

Har qanday $n!$ uchun quyidagi formula o'rinli.

$$n! = \frac{(n+1)!}{n+1} \quad (1)$$

$$\text{Tekshiramiz: } 4! = \frac{(4+1)!}{4+1} = \frac{5!}{5} = \frac{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5}{5} = \frac{120}{5} = 24$$

$$3! = \frac{(3+1)!}{3+1} = \frac{4!}{4} = \frac{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4}{4} = \frac{24}{4} = 6$$

$1!$ ham $0!$ ham 1 ga teng. $1! = 1$ ga tengligi hammaga ma'lum. $0! = 1$ ga tengligini isbotlaymiz.

Isbot: $0!$ ni (1) formuladan foydalanib hisoblaymiz.

$$0! = \frac{(0+1)!}{0+1} = \frac{1!}{1} = \frac{1}{1} = 1$$

Demak, $0! = 1$.


Shuningdek, biz $n!$ ni kombinatorikaning o'rin almashtirishlar soni bilan ham kiritishimiz mumkin bo'ladi, masalan:

Uchta o'quvchi skameykaga necha xil usul bilan o'tirishi mumkin?

Yechish: o'quvchilarni A, B, C deb belgilaylik.
ABC, ACB, BAC, BCA, CAB, CBA.

Demak, jami 6 xil usulda. Diqqat qiling: $6=3!$

Faktorial juda tez o'suvchi funksiyadir. U har qanday $y = a^x$ yoki $y = x^a$ funksiyalardan tezroq o'sadi. Lekin, $y = x^x$ funksiyasi faktorial funksiyasidan tezroq o'sadi.



Faktorialning rekkurent formulasi.

$$n! = \begin{cases} 1, & n = 0 \\ n \cdot (n-1)!, & n > 0 \end{cases}$$

Faktoriallarga oid misollar:

1-misol. $\frac{10!}{9!} - \frac{8!}{7!}$ hisoblang.

2-misol. $\frac{12!+11!}{12!-11!}$ hisoblang.

3-misol. $55!$ soni nechta 0 bilan tugaydi.

4-misol. $0! + 1! + 2! + \dots + 45!$ nechta 0 bilan tugaydi.

5-misol. $24! = 2^x \cdot 3^y \cdot z$ va $x, y, z \in N$ bo'lsa, $(x+y)_{\max}$ ni toping.

6-misol. $100! = 6^x \cdot y$ ($x, y \in N$) bo'lsa, $x_{\max}$ ni toping.

7-misol. $3! \cdot 3 + 4! \cdot 4 + \dots + 32! \cdot 32$ ni hisoblang.

8-misol. $\frac{(n+2)!}{n!+(n+1)!} = 8$ bo'lsa, n ni toping.

9-misol. $62!$ soni 12 ning qanday eng katta darajasiga bo'linadi?

10-misol. $17!$ ni tub ko'paytuvchilarga ajrating.

11-misol. $\frac{20!}{16! \cdot 4!}$ sonini kanonik ko'rinishda yozing.

12-misol. $\frac{200!}{100! \cdot 100!}$ soni 100^{10} ga qoldiqsiz bo'linadimi?

13-misol. $500!$ Soni 22^{50} ga qoldiqsiz bo'linadimi?

14-misol. $\frac{(x+1)! \cdot x!!}{3} = \frac{12}{(x+1)!!}$ bo'lsa, x ni toping.

15-misol. $\frac{(x+1)!}{(x-1)! \cdot x!} = 8$ bo'lsa, x ni toping.

16-misol. $\varphi(\varphi(27)!)$ ni hisoblang. (bu yerda φ Eyler funksiyasi)

17-misol. $\tau(\sigma(12)!)$ ni hisoblang. (bu yerda τ -bo'luvchilar soni, σ -bo'luvchilar yi'gindisi)

18-misol. $\frac{\sigma(15)!}{\tau(\sigma(15))!}$ soni butun son bo'ladimi?

Bu yerda faktorialning boshqa turlarini keltirib o'tamiz:

SUPERFAKTORIAL

Superfaktorial tushunchasini fanga dastlab 1995-yilda Neyl Sloan va Simon Pluffe kiritgan.

n sonining superfaktoriali deb, bu n dan katta bo'lmagan sonlarning faktoriallar ko'paytmasiga aytiladi,

$$SF(n) = \prod_{k=1}^n k!$$

Masalan, $SF(4) = \prod_{k=1}^4 k! = 1! \cdot 2! \cdot 3! \cdot 4! = 288$.

GIPERFAKTORIAL

Giperfaktorial tushunchasini fanga dastlab 2000-yili Genri Bottomli kiritgan.

n sonining giperfaktoriali deb, bu n dan katta bo'lmagan sonlarning superfaktoriallari ko'paytmasiga aytiladi va u quydagicha ifodalanadi.

$$GF(n) = \prod_{k=1}^n SF(k)$$

Masalan, $GF(4) = SF(1) \cdot SF(2) \cdot SF(3) \cdot SF(4) = 1 \cdot 2 \cdot 12 \cdot 288 = 6912$

PRIME FAKTORIAL.

Natural sonning prime(tub) faktoriali 2 xil ko'rinishda beriladi.

1. $P_n \#$ — dastlabki n ta tub sonlarning ko'paytmasi bilan aniqlanadi.

Masalan, $P_3 \# = 2 \cdot 3 \cdot 5 = 30$.

2. $\#n$ yoki $n\#$ ko'rinishida berilib, bunda n dan katta bo'lmagan barcha tub sonlar ko'paytmasiga teng bo'ladi.

Masalan, $10\# = \#10 = 2 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 7$.

IKKILAMCHI FAKTORIAL.

Agar berilgan $n!!$ faktorialda n toq son bo'lsa, $n!!$ n gacha bo'lgan toq sonlar ko'paytmasiga, n juft son bo'lsa, $n!!$ n gacha bo'lgan juft sonlar ko'paytmasiga teng bo'ladi.

$$6!! = 2 \cdot 4 \cdot 6 = 48, \quad 7!! = 1 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 7 = 105, \quad 0!! = 1$$

1-umumiy qoida:

$$n \underbrace{!! \dots!}_{k \text{ ta}} = \begin{cases} n \cdot (n-k) \cdot (n-2k) \cdot \dots \cdot (n \bmod k) \\ n \cdot (n-k) \cdot (n-2k) \cdot \dots \cdot k \end{cases}$$

1-holda: n soni k soniga bo'linmasa

2-holda: n soni k soniga bo'linsa

$$13!!! = 13 \cdot 10 \cdot 7 \cdot 4 \cdot 1 = 3640$$

$$9!!!! = 9 \cdot 5 \cdot 1 = 45$$

2-umumiy holda:

$n \underbrace{!! \dots!}_{k \text{ ta}}$ uchun $k > n$ bo'lsa, $n \underbrace{!! \dots!}_{k \text{ ta}} = n$ bo'ladi.

$$4!!!! = 4 \text{ va } 3!!!! = 3$$

SUBFAKTORIAL

Subfaktorial quyidagicha belgilanadi: $!n$.

$!n = n! \cdot \left(1 - \frac{1}{1!} + \frac{1}{2!} - \frac{1}{3!} + \frac{1}{4!} - \frac{1}{5!} + \dots + \frac{(-1)^n}{n!}\right)$ formula orqali hisoblanadi.

Masalan:

$$!1 = 1! \cdot \left(1 - \frac{1}{1!}\right) = 0$$

$$!2 = 2! \cdot \left(1 - \frac{1}{1!} + \frac{1}{2!}\right) = 1$$

Qo'shimcha hisoblash formulalari:

$$1. \quad !n = n! \sum_{k=0}^n \frac{(-1)^k}{k!}$$

$$2. \quad !n = n \cdot !(n-1) + (-1)^n$$

$$3. \quad !n = (n-1)[!(n-1) + !(n-2)]$$

$$4. \quad !n = \left\lceil \frac{n!+1}{e} \right\rceil$$

FAKTORIALNING GAMMA VA PI-FUNKSIYALARI BILAN BO'GLIQLIGI:

$$n! = \Gamma(n+1)$$

$$n! = \Pi(n)$$

$$\Gamma(n) = \int_0^\infty x^{n-1} e^{-x} dx$$

$$\Pi(n) = \int_0^\infty x^n e^{-x} dx$$

LEJANDR FORMULASI:

$$\Gamma(2n) = 2^{2n-1} \cdot \frac{1}{\sqrt{\pi}} \Gamma(n) \cdot \Gamma(n + 0,5)$$

$$\text{Misol: } 0,5! = \Gamma(0,5 + 1) = \Gamma(1,5)$$

$$\Gamma(2 \cdot 1,5) = 2^{2 \cdot 1,5 - 1} \cdot \frac{1}{\sqrt{\pi}} \Gamma(1,5) \cdot \Gamma(2)$$

$$\Gamma(3) = 2! = 2$$

$$\Gamma(2) = 1! = 1$$

$$2 = \frac{4}{\sqrt{\pi}} \cdot \Gamma(1,5) \cdot 1$$

$$\Gamma(1,5) = 0,5! = \frac{\sqrt{\pi}}{2}$$

STIRLING FORMULASI

Ko'p hollarda faktorialning taqribiy qiymati uchun Stirling formulasining asosiy qismini hisobga olish kifoya:

$$n! \approx \sqrt{2\pi n} \cdot \left(\frac{n}{e}\right)^n$$

Stirling formulasi asosan kata natural sonlarning taqribiy qiymatini hisoblash uchun ishlatiladi.

FAKTORIALNING HOSILA ORQALI HISOBLASH:

Manfiy bo'lmagan n butun sonlar uchun:

$$(x^n)^{(n)} = n!$$

$$\text{Masalan: } (x^3)''' = 3(x^2)'' = 6x' = 6 = 3!$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Musayev, Sardor. "TABIIY USULDA GRADUIRLANGAN FILIFORM LEYBNITS ALGEBRALARINING KVAZI-DIFFERENTIALLASHLARI." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 3.7 (2024): 72-76.
2. Musayev, S. (2024). TABIIY USULDA GRADUIRLANGAN FILIFORM LEYBNITS ALGEBRALARINING KVAZI-DIFFERENTIALLASHLARI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 3(7), 72-76.
3. Musayev, Sardor. "TABIIY USULDA GRADUIRLANGAN FILIFORM LEYBNITS ALGEBRALARINING KVAZI-DIFFERENTIALLASHLARI." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 3, no. 7 (2024): 72-76.

4. Musayev, S., 2024. TABIIY USULDA GRADUIRLANGAN FILIFORM LEYBNITS ALGEBRALARINING KVAZI-DIFFERENTIALLASHLARI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 3(7), pp.72-76.
5. Musayev S. TABIIY USULDA GRADUIRLANGAN FILIFORM LEYBNITS ALGEBRALARINING KVAZI-DIFFERENTIALLASHLARI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*. 2024 Jun 18;3(7):72-6.
6. Musayev, S. . (2024). TABIIY USULDA GRADUIRLANGAN FILIFORM LEYBNITS ALGEBRALARINING KVAZI-DIFFERENTIALLASHLARI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 3(7), 72–76. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/33949>



INNOVATIVE
WORLD

YUZA TUSHUNCHASINING KIRITILISHI HAQIDA

Abjalilov Sanaqul Xo'jamovich

Navoiy davlat universiteti, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent,

Abjalilov Botir Xo'jamovich

Navoiy davlat universiteti akademik litseyi o'qituvchisi,

Arzikulova Marjona Hasan qizi


Navoiy davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada yuza tushunchasini klassik usullarda kiritish, ya'ni yuza miqdorining kongruent kvadratlarga ajratish, parchalash (bo'laklash) va tugatish (to'ldirish) usullari haqida so'z yuritilgan. Yuzalarni hisoblash formulalarini keltirib chiqarish bo'yicha tipik misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kvadrat birlik, yuzani quyi va yuqori chegaralari, limit, yuza aksiomalari, kvadratlanuvchi va kvadratlanmaydigan figuralar, uchburchak, doira.

Ma'lumki, yuza birligi deb tomoni birga teng kvadrat yuzasi qabul qilingan. Biror F figuraning yuzasi deganda ushbu figurada nechta yuza birligi mavjud ekanligini bildiruvchi $S(F)$ miqdor tushuniladi. Ammo ushbu qabul qilingan tushunchani yuzaning sof matematik ta'rifi deb qabul qila olmaymiz. Chunki ba'zi bir misollar uchun qo'shimcha aniqlik kiritilishi lozim. Masalan, berilgan doirada nechta yuza birligi mavjud ekanligi va uni topish qoidalari kiritilishi lozim.

Yuza tushunchasini kiritishning bir qator usullari mavjud bo'lib, ulardan tekislikni o'zaro kongruent bo'lgan kvadratlarga ajratish usuli haqida fikr yuritamiz. 1-chizmada keltirilgan F figura 9 ta kvadratni o'z ichiga olgan bo'lib, uning o'zi 29 ta kvadratni o'zida jamlagan figura ichiga joylashgan, ya'ni $9 \leq S(F) \leq 29$. Yanada aniqroq hisobni amalga oshirish uchun kvadratlar tomonini yana 10 ta teng bo'lakka bo'lamiz (bunda har bir kvadratda 100 ta kvadrat hosil bo'ladi). Bu holda F figura 1716 ta kvadratni o'z ichiga oladi va 1925 ta kvadrat tashkil qilgan figura ichiga joylashadi. Demak, $17,16 \leq S(F) \leq 19,25$. Shu kabi kvadratlar tomonini yana 10 ta teng qismlarga bo'lib borish bilan $S(F)$ ning qiymatini katta aniqlikda hisoblash mumkin.



1-chizma. Figura yuzasining quyi va yuqori chegaralari

Yuqoridagi jarayon nafaqat yuzani hisoblash, balki yuza tushunchasiga ta'rif berishga ham asos bo'ladi. Tomonlari uzunligi $\frac{1}{10^k}$ birlikka teng kvadratlarni qaraylik. F figuraga a_k ta kvadrat tegishli va shu bilan birga F figura b_k ta kvadratlar tashkil qilgan figura ichiga joylashgan bo'lsin. U holda F figura kami bilan $\frac{a_k}{10^{2k}}$, ko'pi bilan $\frac{b_k}{10^{2k}}$ kvadrat birlik yuzaga ega bo'ladi. Bu yerda k ning qiymatini cheksiz oshirish bilan yuzaning quyi va yuqori chegaralarini ifodalovchi limitlarga ega bo'lamiz

$$\underline{S}(F) = \lim_{k \rightarrow \infty} \frac{a_k}{10^{2k}}, \quad \bar{S}(F) = \lim_{k \rightarrow \infty} \frac{b_k}{10^{2k}}$$

Agar yuqoridagi limitlar ustma-ust tushsa, u holda F figura kvadratlanuvchi va $\underline{S}(F) = \bar{S}(F) = S(F)$ qiymat F figuraning yuzi deyiladi.

Istalgan figuralarda ham quyi va yuqori yuzalarni ifodalovchi limitlar teng bo'lavermaydi. Bunga misol sifatida V.Boltyanskiy masalasini keltiramiz [1].


Tomoni 1 ga teng kvadrat yuzasidan shu yuzaning $\frac{1}{4}$ qismidan kichik bo'lgan + shaklidagi qismi olib tashlanadi. Hosil bo'lgan to'rtta kvadratdan jami to'rtta + shaklidagi va yuzalari yig'indisi $\frac{1}{8}$ dan kichik bo'lgan yuza olib tashlanadi va hakazo. Figuradan cheksiz ko'p + larni olib tashlashdan qolgan qismini Q bilan belgilaylik. Shunda jami olib tashlangan yuzalar

$$\frac{1}{4} + \frac{1}{8} + \frac{1}{16} + \dots + \frac{1}{2^n} + \dots < \frac{1}{2}.$$

Q figurani $\frac{1}{2}$ ga teng yuzaga joylashtirib bo'lmaydi, chunki Q figura yuzasi $\frac{1}{2}$ dan katta, ya'ni Q figuraning yuqori chegarasi $\frac{1}{2}$ dan katta bo'ladi. Shu bilan birga Q figura o'ichamlari istalgancha kichik bo'lgan birorta kvadratni o'z ichiga olmaydi. Shuning uchun Q figura yuzasining quyi qiymati

nolga teng bo'ladi. Shunday qilib, $\underline{S}(Q) \neq \bar{S}(Q)$ bo'ladi. Demak, Q figura kvadratlanmaydi (2-chizma).

Yuqorida ko'rib o'tilgan V.Boltyanskiy masalasi istalgan figuraning yuzasini topish mumkin bo'lavermasligini ko'rsatadi. Ammo barcha ko'pburchaklar, qavariq figuralar (shu jumladan doira ham) kvadratlanuvchi bo'lib, ushbu sinfga kiruvchi figuralar sinfi ham keng sinfni tashkil qiladi.



2-chizma. Kvadratlanmaydigan figura

S yuza kvadratlanuvchi figuralar uchun son qiymatiga ega bo'luvchi funksiya bo'lib, $S(F)$ qiymat har bir F figura uchun aniq bir qiymatni qabul qiladi.

Kiritilgan yuza tushunchasining 4 ta asosiy xossalarini keltiramiz:

- S funksiya nomanfiy, ya'ni istalgan kvadratlanuvchi F figura uchun $S(F) \geq 0$;
- S funksiya additiv, ya'ni o'zaro ichki umumiy nuqtalarga ega bo'lmagan F_1 va F_2 kvadratlanuvchi figuralar uchun $S(F_1 \cup F_2) = S(F_1) + S(F_2)$;
- Harakat natijasida F_1 figura F_2 figuraga o'tsa, u holda $S(F_1) = S(F_2)$;
- Birlik kvadratning yuzasi 1 bo'ladi.

Teorema. Kvadratlanuvchi barcha figuralar uchun yuqoridagi 4 ta xossaga ega S funksiya mavjud va yagona.

Ko'rib o'tilganlardan foydalanib yza tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Ta'rif. Yuza yuqoridagi 4 ta xossa yordamida aniqlanuvchi barcha kvadratlanuvchi figuralar to'plamida aniqlangan sonli funksiyadir.

Keltirib o'tilgan 4 ta xossa yuza aksiomalari deb qabul qilinsa yuqoridagi ta'rifni yuzaning aksiomatik kiritilishi deb qabul qilish mumkin. Shunday qilib,


yuza aksiomatik kiritiladigan bo'lsa, figurani kvadratchalarga bo'lish ehtiyoji bo'lmaydi.

Yuzani hisoblash masalasi. Ushbu masalani eng sodda va qadimiy usuli *parchalash (bo'laklash)* usuli bilan tanishamiz. Ikki figura tarkibi bir xil sondagi figuralar qirqimlaridan iborat bo'lsa, u holda ular tenglashtirilgan figuralar deyiladi.

Yuzaning asosiy aksiomalaridan ikkita tenglashtirilgan figuralar tengdosh, ya'ni bir xil yuzaga ega ekanligi kelib chiqadi. Parchalash metodida figura chekli sondagi shunday bo'laklarga ajratilar ekanki, ushbu bo'laklardan sodda bir figura yasash mumkin bo'lsin. Masalan, parallelogrammdan bo'yi shu parallelogramm asosiga va eni esa balandligiga teng to'g'ri to'rtburchak yasash mumkin. To'g'ri to'rtburchak yuzasi formulasini bilganimiz holda parallelogramm yuzasini hisoblash formulasi kelib chiqadi. Uchburchakning yuzasi shu asosli, yon tomoni uchburchak yon tomonlaridan biri bo'lgan parallelogramm yuzasining yarmi ekanligini ko'rsatish mumkin [2-4].

Uchburchak yuzasini bilgan holda istalgan ko'pburchak yuzasini uchburchaklarga ajratish ularning yuzalarini qo'shish bilan hisoblash mumkin. Ko'pburchakni qanday uchburchaklarga ajratishdan qat'iy nazar yuza bir xil bo'lishini kuzatamiz (yuzaning mavjudligi va yagonaligi haqidagi teorema o'rinli bo'ladi).

Figurani parchalash usuli qanchalik ishonchli bo'lmasin, uni kvadratlanuvchi istalgan figuraga qo'llab bo'lavermaydi. Masalan doira uchun ushbu usulni qo'llay olmaymiz. Ya'ni, doirani chekli sonda qirqib ko'pburchaklar shaklida bo'laklarga ajratib bo'lmaydi. Shu kabi yuzalarni hisoblashda *tugallash (to'ldirish)* usulini qo'llash mumkin. Bu usul ham qadimiy usul bo'lib, uning yaratilishi Arximed ishlariga borib taqaladi. Ushbu usulda kvadratlanuvchi F figura va unda joylashgan kvadratlanuvchi $G_1, G_2, \dots$ figuralar ketma-ketligi asos qilib olinadi. F figurani G_n figuralar bilan to'ldirilmagan qismlari $n \rightarrow \infty$ da cheksiz kichiklashadi va izlangan yuza $S(F) = \lim_{n \rightarrow \infty} S(G_n)$ kabi qiymatga ega bo'ladi. Bu yerda $G_1, G_2, \dots$ figuralar ketma-ket ravishda figurani "to'ldiradi" va uning yuzasini hisoblash imkoniyati paydo bo'ladi (3a-chizma).



3-chizma. Yuzani hisoblashning to'ldirish usuli

Doira yuzasini hisoblashda yuqoridagi usulning qo'llanilishini ko'rib chiqaylik (3b-chizma). Doiraga ichki chizilgan muntazam ko'pburchak tomonlari sonini cheksiz oshirib borish bilan uning yuzasini hisoblaymiz. Uchi aylana markazida, yon tomonlari doira radiuslariga teng n ta teng yonli uchburchaklar yuzalari yig'indisi berilgan doira yuzini ifodalaydi,

$$S(F) = \lim_{n \rightarrow \infty} n \cdot \frac{1}{2} R^2 \sin \frac{2\pi}{n} = \left| \frac{1}{n} = x \right| = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{1}{2x} R^2 \sin 2\pi x = \\ = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{2\pi R^2}{2} \cdot \frac{\sin 2\pi x}{2\pi x} = \pi R^2.$$

Biz keltirib o'tgan yuzani hisoblash usullaridan foydalanib qator kavadratlanuvchi figuralar yuzalarini hisoblash formulalarini keltirib chiqarish mumkin. Shuningdek, ushbu usullar yuza tushunchasini kiritish va asoslashda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar

1. Болтянский В. О понятиях площади и объема, Научно-популярный физико-математический журнал "Квант", 1977 год номер 5
2. S.X. Abjalilov, B.X. Abjalilov, I.Berdiyeva Methods of Determining Points with Rational Coordinate to Line, Central Asian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences <https://cajmtcs.centralasianstudies.org>, (2023)
3. S.X.Abjalilov, B.X.Abjalilov, D.Xo'jamova, ANALITIK VA YASASH GEOMETRIYASIDA INVERSION ALMASHTIRISHLAR, Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences, Volume 3 Issue 4, April 2023, 19-23

4. S.X.Abjalilov, N.M.Kamolov, D.S.Xojamova, TEKISLIKDA
AKSLANTIRISHLAR VA ALMASHTIRISHLAR, Results of National Scientific
Research International Journal 1 (1), 5 MAY 2022, 200-205



INNOVATIVE
WORLD

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI PSIXOLOGIYASINING DIQQATGA TA'SIRI VA ULARDA DIQQATNI JAMLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Bobonazarova Nodira Oktambekovna

University of Economics and pedagogy NOTM, pedagogika kafedrası
o'qituvchisi

Toxirova Maryam

University of Economics and pedagogy NOTM talabasi

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'lim – bola shaxsining intellektual va hissiy rivojlanishidagi asosiy bosqichdir. Shu davrda diqqatni jamlash muhim o'rin tutadi, chunki ta'lim jarayonining samaradorligi bolalarning diqqatni boshqarish qobiliyatiga bevosita bog'liq. Shu bilan birga, pedagogik metodlar, psixologik yondashuvlar va ta'lim jarayonlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatni jamlash muammolari, psixologiyasining diqqatga ta'siri va yechimlari yoritildi. Shuningdek, Buyuk insonlarning bilim va ta'lim haqidagi fikrlari ham keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: bolalar psixologiyasi, diqqat, shaxs temperamenti: sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik, emotsional rivojlanish, metodika, pedagog.

"Aql va qalb tarbiyasi – buyuk jamiyatni barpo etadi."

Aristotel

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Diqqatning qisqa muddatli bo'lishi
2. Qiziquvchanlik
3. Rang-baranglikka ehtiyoj
4. Emotsional rivojlanish

Boshlang'ich sinf o'quvchisining diqqati beqarorligi sabab, ular dars jarayonlariga ko'nikishi qiyin bo'ladi. Shu qatorda qiziquvchanlik sababli ham bola atrofida o'zi uchun yangi ma'lumot bo'lgan jamiyki narsalarga chalg'ib, diqqatini yoyib yuboradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari rang-baranglikka yani doimiy har xil metodikalar bilan o'tiladigan darslarga ehtiyoj seza dilar. Emotsional rivojlanish bolaning psixologik va ijtimoiy o'sish jarayonining muhim qismidir. Ushbu rivojlanish bolada his tuyg'ularni aniqlash, boshqarish qobiliyatini shakllantiradi. Bu jarayon biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Bola o'z o'zini boshqarishga kirishganida bor diqqatni jamlab, boshqaruv sistemasiga yo'naltiradi. Demak, bola psixologiyasining emotsional rivojlanishi diqqatni jamlashga bog'liq ekanini ko'rishimiz mumkin.

Psixolog Lev Vygotskiy ta'kidlaganidek, "Bola shaxsiyatining rivojlanishi uning atrofidagi jamiyat bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi." Shu sababli ta'lim jarayoni shaxsiy yondashuvni ham talab qiladi.

Diqqatni jamlashga ta'sir qiluvchi omillar

Ichki omillar: Fiziologik rivojlanishning o'ziga xosligi: Tez o'sish, tana proporsiyalari, suyak tizimi, modda almashinuvi, immun tizimidagi yetishmovchiliklar, uyqu yetishmasligi, jismoniy sog'lik, tartibli muhit.

Psixologik holat, motivatsiya va qiziqish, emotsional holat buzilishlari.

Shaxsning temperament.

Bola diqqatiga ta'sir qiluvchi ichki omillar orasida temperamentning roli juda muhimdir. Temperament – bu shaxsning tug'ma psixofiziologik xususiyatlarini belgilovchi individual holati bo'lib, uning diqqatini boshqarish va yo'naltirish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Temperament turiga qarab, bolaning diqqat sifati, barqarorligi, hajmi va yo'naltiriluvchanligi farqlanadi:

1. Sangvinik temperament: Diqqatining barqarorligi va yuqori darajadagi faollik bilan ajralib turadi. Bunday bolalar tezda yangi ma'lumotga o'tadi, ammo diqqatni uzoq muddat bir narsaga jamlashda qiynalishi mumkin.

2. Xolerik temperament: Diqqatlari juda faol, lekin tez chalg'ishi mumkin. Diqqatning zo'riqishi va emotsional ta'sirlarga bog'liqligi kuchli.

3. Flegmatik temperament: Diqqatining barqarorligi yuqori. Uzoq vaqt davomida diqqatini bir masalaga qaratishi oson, lekin yangi ma'lumotga o'tishda sustlik kuzatiladi.

4. Melanxolik temperament: Diqqatning hajmi va barqarorligi past. Ular ko'pincha emotsional holat ta'sirida diqqatini yo'qotadi.

Tashqi omillar: O'quv muhitining mosligi: shovqin darajasi, yorug'lik va makonning qulayligi.

O'qituvchi va ota-onalarning bolaga ta'siri.

Darslar mazmunining jozibadorligi.

Diqqatni jamlash muammolari

Diqqatni jamlashda boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi muammolar bilan duch keladilar:

1. Tez chalg'ish.
2. Motivatsiyaning yetishmasligi.
3. Jismoniy va ruhiy charchoq.
4. Ortiqcha o'quv yuki.

Bu omillar bolaning diqqatini jamlashiga to'siq bo'luvchi muammolar hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun har tomonlama yondashuv zarur. Bolaga ota-onasi, yaqin kishilari, ustozlari tomonidan yordam va ko'mak berish natijasida yuqorida keltirilgan muammolarga barham berish mumkin.

Diqqatni jamlashni rivojlantirish usullari

1. Psixologik metodlar:

Kichik dam olish mashqlarini qo'llash.

O'yin texnikalarini qo'llash: "Kim ko'proq eslab qoladi?", "So'zni davom ettir".

Hissiy qiziqishni uyg'otuvchi vazifalar berish.

2. Metodik usullar:

Vizual vositalar (rangli kartochkalar, diagrammalar).

Qisqa, lekin qiziqarli o'quv materiallari.

Jamoaviy ishlar orqali o'zaro hamkorlikni rivojlantirish.

3. Texnologik usullar:

Elektron o'quv platformalaridan foydalanish.

Multimedia materiallar bilan ishlash.

4. Jismoniy mashqlar:

Diqqatni faollashtirish uchun "Chiroq" o'yini.

2-3 daqiqalik tanaffus mashqlari.

Prezidentning ta'limga oid nutqlari

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'limning ustuvor ahamiyatiga urg'u berib, shunday degan:

"Ta'lim va tarbiya – bu jamiyatning kelajagini belgilovchi asosiy mezon. Biz farzandlarimizni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollantirish orqali ularga yorqin kelajak yaratishimiz kerak."

(2020-yil, xalq ta'limi tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan yig'ilish).

Xulosa

"Dono inson bolalarni tarbiyalashda ularga qaratilgan e'tibor va mehrni asos qilib oladi." – Konfutsiy

Boshlang'ich ta'limda diqqatni jamlashning samarali usullaridan foydalanish, psixologik xususiyatlarni inobatga olish va pedagogik jarayonni qiziqarli tashkil etish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartidir. Hozirgi kunda prezidentimizning yosh pedagoglar uchun yaratib berayotgan shart-sharoitlari: 4+2 tizimida olib borilayotgan ta'lim sistemasi natijasida, o'qituvchi bo'lib borishdan avval pedagog talaba o'zini amaliyot darslarida o'quvchilar bilan ishlab, bolalar psixologiyasi va ular bilan ishlashda ko'nikmalar xosil qilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi ham o'qituvchi ham o'quvchining bilim olish doirasini kengaytirmoqda desak xato bo'lmaydi. Bu borada muhtaram yurtboshimizning ta'lim sifatini oshirish maqsadida Finlandiya tajribasini o'rganish va joriy etish bo'yicha bir qancha tashabbuslarni ilgari surganlar. Masalan, 2020-yil 6-may kuni o'tkazilgan videosektor yig'ilishida davlatimiz rahbari shunday deganla: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi." Finlandiya ta'lim tizimining ustivorligi shundaki, u yerdagi har bir o'quvchi alohida nazorat ostida va kuzatuvda bo'ladi. Bu nima degani, bitta o'quvchi uchun bitta o'qituvchi biriktirilib eng avval ustoz bolaning

psixologiyasi, diqqatining tarqoq emasligini tekshirib so'ng dars jarayoniga qo'yiladi. Bu hol har kuni tekshirilib, yozib kuzatuvlar olib boriladi. Bola psixologiyasida qandaydir o'zgarish sezilsa, u o'quvchi bilan darhol muammolar yechimlari ustida ishlanadi. Bunday ta'lim tizimi olib borilishi, eng avval bola psixologiyasidagi xotirjamlik va sog'lik dars jarayonida o'z diqqatini jamlashi, chalg'imaslik, parishonxotir bo'lmaslik va darsni puxta o'zlashtirishga yordam beradi.

"Bizning eng katta kuchimiz – diqqatni bir narsaga to'liq jamlashda."
Aleksandr Bell

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy, L. S. (1978). "Psixologik rivojlanishning ijtimoiy nazariyasi."
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqlari (2020, 2022).
3. Abdullaeva G'. "bola psixologiyasi." - Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020).
5. Aristotel. "Falsafa asoslari."
6. Lev Vygotskiy. "Bolalik va o'smirlik psixologiyasi." - Moskva: prosveshchenie, 1984.
7. Anan'yev B.G. "Psixologiya i razvitie lichnosti" (1968) - Temperamentning psixologik xususiyatlari va uning diqqatga ta'siri bo'yicha muhim manba.
8. Golovey L.A., Shadrix E.P. "Obshchaya psixologiya" (2016) - Temperament va diqqatni boshqarish bo'yicha batafsil ma'lumotlar.

INNOVATIVE
WORLD

ADABIYOT QOIDALARI"DAGI ADABIY TUR VA JANRLAR

NASIBA NOROVA,

BuxDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fitratning adabiy tur va janrlar haqidagi qarashlari o'rganilgan. Arestotelning "Poetika" asarida keltirilgan qimmatli ma'lumotlar bilan muqoyasa qilingan. Hozirgi adabiyotshunoslikdagi bu boradagi qarashlar va olimlarning fikrlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Tur, janr, epos, drama, lirika, yurakchil-lirika, liro-epik

Abstract: In this article, Fitrat's views on literary types and genres are studied. They are compared with the valuable information provided in "Poetics" by Arestotel. The opinions and opinions of scholars in this regard in current literary studies are analyzed.

Key words: Type, genre, epic, drama, lyric, heart, lyric-epic

Аннотация: В статье изучаются взгляды Фитрата на литературные виды и жанры. Они сравниваются с ценными сведениями, изложенными в "Поэтике" Аристотеля. Анализируются мнения и мнения ученых по этому поводу в современном литературоведении.

Ключевые слова: Тип, жанр, эпос, драма, лирика, сердце, лирико-эпос.

Kirish. Adabiy asarlarni turlar va janrlarga taqsim etish, guruhlash har bir adabiy turning xususiyatlarni aniqlash uchun qo'llanilgan shartli usuldir. Bu har bir davr adabiyoti uchun juda qimmatli. "Arestotelning "Poetika" asari yaratilganidan buyon adabiyot asarlari katta uch guruhga bo'lish ilmda qoida bo'lib qolgan". [1,153] Shunday ekan, avvalo, adabiy tur tushunchasi nima degan savol tug'iladi. Tur so'zi omonimlik harakteriga ega bo'lib, 1-tur-harakat, (fe'l) 2-tur -xil, xususiyat, 3- tur- davrali sport musobaqalarida bir qur o'yin kabi ma'nolarni bildiradi.

Janr atamasi esa, (frans. genre — jins, tur) — san'at turlarida tarixan shakllangan ichki bo'linish hamda mazkur bo'linishni ifodalovchi tushuncha, shakl va mazmun birligidagi o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan san'at asarining alohida turi hisoblanadi. San'at asarlarining janr guruhlariga bo'linishi turli (tanlangan mavzu, badiiy-g'oyaviy mazmun, shakl jihatlari va boshqa) mezonlarga tayanib amalga oshiriladi. Har bir san'at turida janr tasnifi o'ziga xos tizimni tashkil etadi.

Adabiy tur va janrlar haqida Sharq adabiyotshunosligida turli xil qarashlar mavjud. Mumtoz adabiyotda adabiy tur tushunchasi o'ziga xos ifoda shakllariga ega. U ko'proq adabiy tur nuqtayi nazaridan emas, balki janrlarga munosabat nuqtayi nazaridan rivoj topgan. Aristotelning mimesis nazariyasi

asosiga qurilgan adabiy turlar haqidagi ta'limot Forobiy orqali Sharq adabiyotiga kirib kelgan bo'lsa ham, musulmon Sharqida, asosan, adabiy turlar tasnifi jihatidan emas, ifoda shakllari yo'lidan borilgan. Adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni turlarga ajratish masalasi qadimdan ishlanib kelganki, bu uning muhim nazariy masalalardan ekanligini korsatadi.

Birinchi bo'lib adabiyotni turlarga Platon ajratgan. U 3 ta adabiy tur xususiyatlari farqlaydi: Ya'ni drama, poeziya, epos tarzida guruhlagan. Qadim yunon qomusiy olimi Aristotel "Poetika" asarida an'anani davom ettirgan. Platon koproq nutq shakliga tayansa, Aristotel taqlidchi va taqlid qilinayotgan obyekt munosabatiga tayangani ko'rishimiz mumkin. Mashhur rus tanqidchisi Belinskiy [2,79] eposda obyektivlik, lirikada subyektivlik, dramada ikkisining qorishilishini kuzatishilishini ta'kidlaydi.

Demak, Aristotelning "Poetika" asarida da adabiy tur va janrlar masalasi quyidagicha talqin qilinadi. Dastlab, poeziya o'xshatish san'atidir. Epos, tragediya, komediya va difiramba ijod etish ... O'xshatish san'atidan o'zga narsa emas deb yozadi. Ular o'zaro 3 jihatdan farqlanadi: 1) tasvirlashning turli vositalari bilan; 2) nima tasvirlanayotganligi bilan; 3) rang-barang o'xshatish usullari bilan.[1,9]

Poeziya (she'riyat): tabiiy ikki sabab o'xshatish, taqlid – insonga bolalikdan xos bo'lgan xususiyat. Inson bolalikdan taqlid, o'xshatishga, ish-harakat, voqealarni qaytadan jonlantirishga qobiliyatlidir, faqat kimda qay darajada? Ikkinchisi, odamlarning tasavvur quvvati asosida yuzaga keladi. Aristotel uch savol asosida fikrini asoslaydi. Nima bilan? (qaysi janrda?), nimani? (his-tuyg'uni, voqeani, harakatni), qanday? (muallif voqealarga aralashmasdan, o'zligicha qolgan holda, barcha aks ettiriluvchi shaxslarni gavdalantirib) degan tamoyilni ilgari suradi.

Qomusiy olim Abdurauf Fitrat adabiy tur va janrlar haqida to'xtalar ekan, ularni quyidagicha ta'riflaydi. "Adabiyot – fikr-tuyg'ularimizdag'i to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham shu to'lqunlarni yaratmoqdir. So'zlar, gaplarni uyushtirib tuzulgan asarlar adabiy bo'lsun-bo'lmasun, bitta yo'sundan birida tuzuladir : sochim, tizim (nazm, nasr). Bir asarda so'zlar, gaplar belgili bir ohangga boylanmasdan, belgili bir o'lchov bilan o'lchanmasdan tarqalib, sochilib tuzulgan esa ul asar sochim yo'sunida tuzulgan bo'ladir. Bir asarda so'zlar, gaplar belgili bir ohangga boylanib, belgili bir o'lchov bilan o'lchanib tuzilgan bo'lsa, u asar tizim yo'sunida tuzilgan bo'ladir". Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Fitrat adabiy asarlarda she'riy ijodkorlarni uchka ajratadi: 1. Yurakchilik – lirika. 2. Rivoya – epos. 3. Tomosha. [3,78.]

"Lirika: shoir o'zining qayg'i-armonlarini, tilak-orzularini, tuyg'u-sezgilarini tasvir etmak tilagi bilan to'lqunli, hayajonli shakllarda yaratilgan asarlarga lirika", – deyiladi. Fitrat insonning his tuyg'ulari bilan "Yurakchil –

lirika" shakllanadi deb ilk bor ushbu atamani olib kiradi. O'tgan zamonda ijod qilgan Lutfiy, Navoiy, Boyqaro, Bobur, Mashrab "lirizm" ning yirik ijodkorlari sanaladi. Yangi shoirlardan esa, Cho'lpon va Botuning nomini tilga oladi. Bularning asarlari "Yurakchil – lirikaning" chiroyli mevasidir deb baho beradi.

Tomosha: Agar voqeadagi yo xayoldagi bir ishni, bir voqeani tasvir etish yo'li bilan yurg'anda tasvirlar shoirning, yozuvchining tilidan emas, shul voqeaga aralashqon kishilar tilidan tasvir etilsa, tomosha ataladi.[3,80]

Tomosha asarining mundarijasini quyidagicha bo'lishini yozadi. 1.Bog'lanish – voqeaning boshlang'ichi. 2. Borish – voqeaning borishi. 3.Bitish – voqeaning natijasi. Bu uchala asosning necha pardada yozilishi to'g'risida qat'iy hukm o'qib bo'lmaydi. Hamda tomosha asar muvaffaqiyati to'laliq – voqeaga aralashqon kimsalarning xarakterlari, ruhiy holatlari butunlay ochilg'anida, birlik – tub tilakning ochilishiga kerak bo'lmag'an kimsalar, ko'rinishlar, dio'lo'g, mo'no'lo'glar asarga kirguzilmasligida, to'g'rilik – asardag'i kimsalarning xarakterlari to'g'ri ko'rsatullishida deb belgilaydi. Mana shu asar qahramoni tomonidan ochilg'an kurashning shakliga ko'ra tomosha asarlari kulgu – komediya; fojia – tragediya; drama kabi uchga ajratadi.

Rivoya: Voqeada, yo xayolda bo'lgan voqealarni yozg'uvchi-adib tilidan tasvir etib yozilg'an asarlarga rivoya deyiladi. Masal, doston, hikoya, ro'mon (adabiyotning eng og'ir, eng qiyin sho'bas) otlari bilan to'rt asos qismga ajraladi. Voqealarni keng hikoya qilishga asoslangan adabiy asarlar guruhiga epik tur va epos(yunoncha epos – rivoya, hikoya) deb ataladi.[3,81]Bugungi kunda ham epik turning uch muhim xususiyati obyektivlik, voqeabandlik, ko'lamdorlik mavjud.

Xulosa.Abadiy tur va janrlar tushunchasi hozirgi adabiy jarayonda ham qizg'in bahs va munozaralarga boy. Qaysidir adabiyotshunos, lirik, epik, dramatik turning mavjudligini isbotlashga urunsa, qaysidir biri liro-epik turning ham borli haqida fikr bildiradi. Demak, adabiyotshunoslik nazariyasida bu boradagi qarashlar haligacha o'rganilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Арестотель. Поэтика.Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1990 – Б.8.
2. Белинский В. Полн. соб. соч. Т.8. – Москва, 1955. – 79 с.
3. Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B.78.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2005 – B.153.

“Devonu lugotut-turk” asarida “do’st” konsepti

Durdona MUTALIPOVA,
ADU magistranti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Do’st” konseptining “Devonu lug’atit-turk” asarida ifodalanishi o’rganilgan. Asarda ushbu konseptni ifodalovchi oltita leksema semantik jihatdan tahlilga tortilgan.

Kalit so’zlar va iboralar: *konsept, bilish, tushuncha, esh, eshin, adash, o’rtoq, qarash, sag’dij, do’stlik, yaqinlik.*

Konsept – bilimlar majmui.[1] Bilimlar esa, bilish va tushunishga bog’lanadi, ya’ni bilimlarni yig’ish uchun ilmni o’rganish va uning mohiyatini tushunish lozim bo’ladi. Inson ko’p narsalarni bilishi, lekin ularning mohiyatini anglamasligi ham mumkin. Bugungi kunda zamonaviy kognitiv tilshunoslik tushuncha asosidagi bilimlarni sistema sifatida o’rganib, ular orasidagi munosabatlarni tadqiq qilish bilan shug’ullanmoqda. Agar bilimlarga sistema sifatida qaralmasa, bunday bilimlar tasavvurligicha qolaveradi. Sistemalashgan bilimlar konsept tabiatiga ega bo’ladi. Konsept mohiyatini tushuncha va so’z ma’nolarining umumiy va farqli jihatlarini, ya’ni ularning integral va differensial belgilarini aniqlamay turib tushuntirib bo’lmaydi. Shu sababdan konsept chuqur va atroflicha tadqiq qilinmoqda. Ushbu maqolada biz Maxmud Koshg’ariyning “Devonu lug’atit - turk” asarida “Do’st” konseptining ifodalanishini o’rganishni maqsad qilib oldik.

O’z ta’biri bilan aytganda “uch daryodan suv ichgan til”imizning xassos sohibi va bilimdoni, nozik badiiyati, mushohada va xalqchilligi bilan ong-u qalblarimiz oshnosiga aylangan asarlar muallifi, shoir Erkin Vohidovning quyidagi misralari sizga juda yaxshi tanishligi shubhasiz:

*Do’st bilan obod uying,
Gar bo’lsa u vayrona ham,
Do’st qadam qo’ymas esa,
Vayronadir koshona ham.*

Darhaqiqat, hayot do’st-u yor bilan to’lug’. Inson hayot yo’lidagi hamrohlar bilan, ajdodlar yodi va avlodlar orzusi bilan tirik. Yolg’izlik faqat Yaratganga xos, deb bejiz aytilmagan axir.

Hammamiz sevib tomosha qiladigan film qahramoni Robinzon Kruzo kema halokati tufayli kimsasiz orolga tushib qolgach, tez orada yashash uchun o’ziga kerakli sharoitlarni yaratadi. Mo’jazzina kulba quradi. Dehqonchilik uchun yer ochadi, suv olib keladi. To’tiqush, kuchuk, mushuk, echkilarni qo’lga o’rgatadi...

Bir qarashda hammasi joyida – qulay iqlim, jannatdek (asosiysi bexatar) orolcha, toza havo, sokin hayot, to'kin-sochinlik... Biroq, u o'zini qafasga tushib qolganday his qilaveradi. Tezroq bu yerdan ketish, qutilishga intilaveradi. Negaki, u jamiyatdan ajralib, yolg'iz – bir o'zi qolgan edi.

Inson o'z tanasi, tabiiy ehtiyojlariga ko'ra dunyodagi millionlab jonivorlar kabi oddiy mavjudot bo'lish barobarida qalbi, fikrlashi, hissiyotlari, ruhiy ehtiyojlariga ko'ra yuksak hilqat, ijtimoiylashgan shaxs hamdir. Uning o'ziga o'xshash odamlar qurshovidan chetda qolishi qanchalar dahshat ekanini his qilish mushkul emas.

Faylasuf shoir Abdula Oripov aytganidek:

...Yolg'izlik hasratin ko'rsatma, taqdir,

Yolg'izlik insonga o'limku axir.

Dunyo shodliklari yig'lsa butun, Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun, deganida mavlono Ro'dakiy do'stlikning qanchalar keng va qanchalar muqaddas tushuncha ekanini izohlaganday go'yo. Aslida ham "do'stlik" "ikki inson o'rtasidagi yaqinlik, ahillik, inoqlik" yoki yaratgan va banda o'rtasidagi rishtagina emas. Balki, inson va Xudo, inson va Payg'ambar, inson va jamiyat, notiq va tinglovchi, muallif va o'quvchi kabilarni bog'lovchi, butun kishilik jamiyatini yaxlitlovchi tushunchadir.

Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlari:

Gar zamonni nafy qilsam, ayb qilma, ey rafiq,

Ko'rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig'! – deganlarida faqatgina o'z rafiqi, ya'ni do'stigagina murojaat qilmagan. Balki, butun zamondoshlariga, kelajak avlodlarga istiholalarini bayon qilgan.

Istasangkim ko'rmagaysan bevafofig', ey rafiq,

Qilma olam ahli birla oshnolig', ey rafiq, – baytida hazrat Navoiy do'st timsolida o'z-o'ziga nasihat qilayotganday ma'no, ohang bor.

Agar do'stlik savdo-sotiqqa o'xshab, ehtiyojga asoslansa, u qanday do'stlik bo'ldi, – deganida ibn Sino do'stlik kishilar o'rtasidagi ma'naviy ehtiyoj ekanini nazarda tutgan. Demak, do'st faqat boshga ish tushganidagina qidiriladigan odam emas. Yoki inson va inson o'rtasidagi do'stlik oddiy inoqlik emas. Chin do'st insonga ruhan yaqin, qalbdan joy olgan, har qanday sharoitda qadrini yo'qotmaydigan shaxs – birodardir.

O'zbekcha "do'st" konsepti milliy qadriyatlar, sharqona odob-axloq bilan birga Islomiy an'analarni ham qamrab olgan. Qur'oni karimning "Hujurot" surasida ***"Albatta, mo'minlar birodardirlar..."*** deyilgan.

Payg'ambarimiz (s.a.v): ***"Mo'minlar bir-birlariga mehr-muhabbat, rahm-shafqat qilishda bir jismga o'xshaydilar. Biron a'zo og'risa qolgan a'zolar ham bedor va isitma bo'lib birgalikda azob chekadi"*** deganlar. Yana bir hadisda: ***"Sizlardan birortangiz to, o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani, birodari uchun ham ravo ko'rmaguncha mo'min bo'la olmaydi"*** – deyiladi.

Endi esa “do’st” so’zining izohi bilan tanishsak. “Do’st” so’zi fors-tojikcha inoqlik, ahillik, totuvlik munosabatlari bilan bog’langan; ko’ngli dili yaqin; muhib ma’nolarini anglatadi. [3-244]. O’zbek tilida “Do’st” konsepti juda keng ma’nolarda qo’llaniladi. Turkiy tillarning dastlabki lug’ati bo’lmish “Devonu lug’otit-turk” da “do’st” so’zining bir qator semalari mavjud:

1. **Esh** – hamroh, o’rtoq, do’st. Alohida tabiatlik kishilarga “eshlik” so’zi ishlatilgan.

Anin ishin kechurdum

***Eshin** jima qachurdum*

Olum otin ichurdum

Ichti bolub jazi tarun.

Uni o’ldirib, ishini bartaraf qildim va **do’stini** qochurdum. O’lim sharbatini torttirdim, yuzini burishtirgan holda ichdi. (2-81-82-betlar). Esh so’zi bugungi kunda juda kam holatlarda foydalaniladi, nafaol so’z hisoblanadi. Ammo so’z o’z ma’nosini ham, o’zini ham saqlab qolgan. O’rta asrlarda bu so’z hozirgiga nisbatan anchayin faol bo’lgan.

Ul yor qo’lidan zahar-da no’sh etsa bo’lar,

Achchiq so’zni shakarga esh etsa bo’lar.

Ko’p tuzli emish so’zlari-har yerda agar

Tuz bo’lsa jigar yeb, dilni xush etsa bo’lar. (Jaloliddin Rumiy)

Uquvli kishiga zakovati esh

Bilimsiz kishiga mukofot-so’kish (Qutadg’u bilig)

Ko’p o’tmay, yangi shahardagi boshlang’ich maktabga muallim bo’lib kirdi, bilimlilar rus, qozoq yigitlaridan o’ziga do’st-esht orttirdi. (A. Muxtor “Chinor”)

Hasratiga quloq sol, hasratiga bo’lgil esht. (T. To’la)

2. **Adash** – do’st, o’rtoq (2-92). Bugun iste’molda bo’lgan “Adash” so’zi o’z ma’nosida qo’llanmasligiga guvoh bo’lamiz. So’z etimologiyasiga ko’ra “adash” “otdosh” so’zining fonetik o’zgarishga uchragan varianti, ya’ni “ismi bir xil insonlar” ekanligini anglash qiyin emas. Biroq, shu o’rinda “adash – do’st” va “adash – otdosh” so’zlaridagi ma’no mushtarakligini ko’rish ham mumkin: ismi bir xil insonlarning bir-biri bilan ko’ngli yaqin, demakki, do’st, o’rtoq bo’ladi albatta. Xalqimizda “Adash” so’zidan ism sifatida ham foydalaniladi. Asosan o’g’il bolalarga qo’yiladigan bu ism “Adashtirilgan, almashtirilgan bola” ma’nolarini kasb etib, chaqaloqni yovuz kuchlardan asrash, ularni chalg’itish uchun berilgan. Shu bilan birga, yuqorida aytilganidek, “Adash”ning do’st, hamdam, o’rtoq ma’nolari ham bor.” [4-2088]

3. **O'rtoq** – do'st, tengdosh, sherik. Maqolda shunday keladi: O'rtoq o'rtoq'idan (taqsimda hissani) ko'p olmaydi. Bu maqol o'rtoqlarning tug'ishganday bir-biriga yaqin, bir-biriga nisbatan adolatli, insofga bo'lishini anglatadi. (2-125) O'rtoq esa anchayin faol so'z bo'lib, bugungi kunda ham "Do'st" semalari orasida eng ko'p qo'llaniladigan so'zdir. Agar shunday farqlash mumkin bo'lsa: "do'st" so'zi ko'pincha erkaklar orasida, "o'rtoq" so'zi esa ayollar orasida faol hisoblanadi.

Navbahor. Ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar

Suhbat aylaylik kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar. (Muqimiy)

Pok-u ahil, oqil kishiga o'rtoq

Bo'l-u, noahildan qochaver yiroq,

Dono senga zahar tutsa ham ichgil

Qo'l cho'zmagil, sharbat tutsa ham ahmoq. (Umar Xayyom)

4. **Azash** – o'rtoq, do'st.

Usitg'an qiyash qapsadi,

Umunlig' azash jajsadi,

Ertish suvin kichsadi

Budun anin o'rko'sho'r.

Qizdiruvchi quyosh qopladi. Umidlik do'st bizni ko'rolmay, bizga yomonlik istab qoldi. U Artish suvin kechayozdi, shuning uchun xalq hurkayotir. [2-170] Bu so'z bugungi kunda eskirgan so'z hisoblanadi.

5. **Qazash** - yaqin birodar. [2-350]

6. **Sag'dij** - do'st, o'rtoq. [2-423]

Qadimdan do'st so'zi turli ma'nolarda qo'llanilishini Pahlavon Mahmud ruboiylari misolida ham ko'rsak bo'ladi:

Gurkiragan olov dilim yo'ldoshi,

To'lqin urgan daryo ko'zlarim yoshi,

Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za

Ko'hna do'stlar xoki – qo'li yo boshi. [5-4]

Ruboiyda shoir gurkiragan olovni yuragidagi ishqqa qiyoslaydi. Daryo qirg'og'idagi suv mavjlanishini esa, ko'z qaboqlaridagi yosh tomchilariga mengzaydi. So'ng yuqoridagi ikki tashbehdan ham go'zal qiyos keladi. Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za ko'hna do'stlar xoki – qo'li yo boshidan ekanligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ko'xna zamin yaratilganidan beri qanchadan qancha insonlar bu yorug' dunyoni tark etdilar. Ularning aniq soni hech kimga ma'lum emas. Yer yuzida qabriston bo'lmagan yer yo'q, degan gap eshitgandim. Shunday ekan tuproq deb olganimiz inson xoki bo'lishi ajab emas. Ahamiyatlisi, shoir bu ruboiyda do'st so'zini ajdod, o'tgan yaqinlar so'zi o'rnida ishlatadi. Ajdodlar bilan avlodlar uzviy bog'liq, ruhan yaqinligidan esa, shu so'z vositasida ruboiyni yanada go'zallashtirgan.

Dunyo do'stligiga berma xotir hech,

*Kekdan o'zga undan zohir bo'lmas hech,
Yuz yil yashasang ham o'lim keladi
Yuz mulkni olsang ham bo'lur oxir hech.*[5-5]

Ruboiyda dunyo bilan do'stlashma, deya fikrini aniq va qisqa ifoda etgan shoir aslida, mol-dunyoga, amal va dunyo lazzatlariga ko'ngil berma, uning jodusiga aldanib qolma deyapti. Sababi bundan yaxshilik chiqmas. Zotan yuz yil yashasang ham, yuz mulkni egallasang ham baribir o'lim hammasini yo'q qilib seni olib ketadi. Do'stlik so'zining olmosdek tovlanishini ko'ringki, bu o'rinda u mehr bermoq, ko'ngil qo'ymoq kabi ma'nolarda nur taratib turibdi.

*Tong chog'i yozganda lolalar yaproq,
Sahar qushi dodlab derdi, ey o'rtoq,
May ichkim, daraksiz ketar hamma ham
Qo'zg'al yer ostida yotgungdur uzoq.*[5-5]

Ruboiy orqali do'stlikning yangi bir mazmuniga misol keltiriladi. Bu hayotda nafaqat insonlar o'rtasida, balki jonzotlar va insonlar o'rtasida ham samimiy, go'zal do'stlik mavjud. Tong qushi insoniyatni "ey, o'rtoq" deya g'aflat uyqusidan uyg'otmoqchi. Bu dunyodan daraksiz ketmaslikka chaqirmoqda, hali yer ostida uzoq uxlab uyquga to'yib olasan, hozir esa tinimsiz harakat qil, deya xitob qilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, do'stlik bir ob'ekt doirasiga sig'maydigan, makon va zamon tanlamas muqaddas tushunchaki, uni qanchalar chuqur o'rganilgani sari yangi-yangi ma'no va ohanglar, rang-baranglik kasb etib boraveradi.

Darhaqiqat, "do'st" konsepti juda ko'plab nozik ma'nolar bilan jilolanuvchi, xalqimiz so'zlashuvi, og'zaki ijodi va badiiy adabiyotida eng ko'p qo'llaniladigan ma'no tushunchasi. Uni chuqur o'rganish, ayniqsa, qadimgi turkiy tildagi ma'nodoshlarini aniqlash va iste'molga kiritish, jahon taraqqiyoti tufayli iste'molga kirib kelayotgan yangi so'zlar bilan uyg'unlashtirish tilshunoslar oldida turgan dolzarb masaladir.

Zero, shoir Sirojiddin Sayyid aytganidek:
*Do'st kim, raqib kim, haq birla hakim kim, –
Bilmay aslin lol ila hayronida kuydim.*

Adabiyotlar

1. Кубрякова Е.С., Деменьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1997. -С.90
2. Махмуд Кошғарий. "Девону луғатит - турк" O'zSSR Fanlar akademiyasi nashriyotining bosmaxonasi. Toshkent 1960
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva "Rus tili nashriyoti" 1981

DINIY MATNLAR PRAGMATIKASI (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf kitoblari misolida)

Xakimova Zulfiyaxon Rashidbek qizi
Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada diniy matnlar pragmatikasi, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Baxtli oila" kitobi oila qurish, uni boshqarish va mustahkam saqlash borasida muhim ko'rsatmalarni o'z ichiga olishi, Kitobdagi asosiy mavzular va g'oyalarni tasniflash: oilaviy munosabatlar, ota-onalik mas'uliyati, tarbiya va ijtimoiy rollar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Qur'on, Pragmatika, motivatsiya, Sotsiologik, metodologik.

Kirish. Oila mavzusidagi diniy matnlar zamonaviy muammolarni hal qilishda universal yechimlarni taklif qiladi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning yondashuvi bu matnlarni amaliy hayotga tatbiq qilishda dolzarbligini yanada oshiradi.

Pragmatik nuqtai nazardan, diniy matnlar zamonaviy oilaviy muammolarni tushunish va hal qilishda yo'naltiruvchi asos sifatida xizmat qiladi. Ular o'quvchiga nafaqat nazariy bilim beradi, balki amaliy harakat qilishga undaydi.

Metodologiya va adabiyotlar. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" kitobi oila haqidagi diniy qarashlarni Qur'on va Sunnatga asoslangan holda zamonaviy muammolar bilan bog'lab, ularning pragmatik tahlilini taqdim etadi. Kitobni chuqurroq tahlil qilish uchun quyidagi yo'nalishlar va metodologik asoslardan foydalanish mumkin:

1.1. Matnning lingvistik tahlili

- Pragmatika nazariyasi: Til orqali o'quvchiga ta'sir qilish usullari, jumladan, iltimoslar, nasihatlar va dalillarni o'rganish.
- Semantik tahlil: Shayxning Qur'on oyatlari va hadislarini qanday izohlaganini, ularning chuqur ma'nolarini yoritish.
- Til sodda va omma bop Shayxning diniy matnlaridagi uslubiy o'ziga xoslik va o'quvchi bilan "muloqot"ni tashkil etish usullari.

1.2. Kontent tahlili

- Kitobdagi asosiy mavzular va g'oyalarni tasniflash: oilaviy munosabatlar, ota-onalik mas'uliyati, tarbiya va ijtimoiy rollar.
- Shayxning fikrlari Qur'on, hadis va boshqa diniy manbalar bilan qanchalik bog'langanligini o'rganish.

1.3. Sotsiologik yondashuv

- Kitobdagi g'oyalarning zamonaviy jamiyatga ta'siri va ularning hayotiy dolzarbligini baholash.

- Kitob o'z davrining oilaviy muammolarini hal qilishda qanday rol o'ynaganligini aniqlash.

Tahlil:

- Shayx Qur'on oyatlari va hadislar asosida nikohning faqatgina shaxsiy emas, balki ijtimoiy va diniy vazifalarini ham yoritadi.
- Qur'ondagi **"Ular orasiga mehr-muhabbat va rahm-shafqatni solib qo'yganimiz Allohning belgilaridandir"** (Rum: 21) oyatining tahlilida nikohning insonga tinchlik va barqarorlik olib kelishdagi rolini ta'kidlaydi.

Pragmatika:

- Nikohni ibodat sifatida taqdim etish o'quvchini amaliy harakatga undaydi.
- Motivatsiya beruvchi dalillar va rag'batlantiruvchi uslub ishlatilgan.

Dalillar:

- Shayx hadislar bilan mustahkamlangan xulosalar keltiradi. Masalan, "Uylangan kishi dinining yarmiga erishdi..." hadisi.

Natija va muhokama. "Diniy matnlar pragmatikasi" masalasi Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning asarlari misolida juda qiziqarli va chuqur ilmiy mavzu hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda Shayxning asarlari tilning nafaqat ma'nosini, balki u orqali yetkaziladigan ijtimoiy, axloqiy va ruhiy ta'sirini o'rganish uchun katta asos beradi.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning kitoblarida quyidagi pragmatik xususiyatlarni kuzatish mumkin:

1. Tilning oddiyligi va tushunarligi

Shayx o'z asarlarida oddiy va tushunarli tilda yozishni maqsad qilgan. Uning asarlarida Qur'on va hadislarini keng ommaga yetkazish uchun sodda, lekin chuqur ma'noli ifodalar ishlatiladi. Bu yondashuv diniy matnlarni o'quvchilar uchun yanada yaqinroq qiladi.

2. Manfaatga yo'naltirilganlik

Shayx o'z matnlarida faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarning dunyoqarashini to'g'rilash, jamiyatdagi axloqiy muammolarni bartaraf etish va amaliy foyda keltirishni maqsad qilgan. Bu diniy matnlar pragmatikasining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

3. Muvofiqlik va moslashuvchanlik

Shayx o'z asarlarida o'quvchilar ehtiyojlari va zamon talablariga mos keluvchi uslub va mazmun tanlagan. Masalan, zamonaviy muammolarni Qur'on va Sunnat nuqtai nazaridan yoritish orqali u matnlarni dolzarbligini ta'minlagan.

4. Da'vat va motivatsiya

Shayxning kitoblari odamlarni yaxshilikka chaqirish, gunohlardan tiyilish va taqvo yo'liga kirishga undaydi. Bu diniy matnlarning pragmatik

funksiyalaridan biri bo'lib, ular orqali o'quvchining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Baxtli oila" kitobi oila qurish, uni boshqarish va mustahkam saqlash borasida muhim ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu kitobda diniy matnlar pragmatikasi juda ko'zga tashlanadi, chunki Shayxning maqsadi nafaqat ilm berish, balki uni hayotga tadbiq etish va o'quvchilarni ongli ravishda harakat qilishga undashdir.

"Baxtiyor oila" kitobi misolida diniy matnlar pragmatikasi:

1. Amaliy maslahat va yechimlar

Kitob oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini Qur'on va hadislar asosida yoritadi. Matnlarda o'quvchining kundalik hayotida qo'llashi mumkin bo'lgan amaliy maslahatlar berilgan. Masalan:

- Er va xotin o'rtasidagi muammolarni hal qilish usullari.
- Bolalarni tarbiyalashda e'tibor qilish kerak bo'lgan jihatlar.
- Oila bag'rida mehr-oqibatni oshirish yo'llari.

Bu maslahatlarning barchasi o'quvchini to'g'ri xulosa qilishga va uni hayotga joriy qilishga undaydi.

2. Ijtimoiy moslashuv va dolzarblik

Kitobda zamonaviy oilaviy muammolar, masalan, ajralish sabablari, ota-onaning farzandlar tarbiyasidagi mas'uliyati kabi mavzular keng yoritilgan. Shayx bu masalalarni o'z davri ijtimoiy sharoitlari bilan bog'laydi, bu esa matnning pragmatik xususiyatlarini yanada oshiradi.

3. Hikmatli ifodalar va motivatsiya

Shayx ko'pincha Qur'on oyatlari va hadislarini keltiradi va ularni qisqa, lekin ta'sirli hikmatlar bilan tushuntiradi. Bu hikmatlar o'quvchiga chuqur ruhiy ta'sir qiladi va uni amaliy hayotda tadbiq etishga undaydi.

4. Oddiy va tushunarli til

Kitobda ishlatilgan til oddiy va hamma uchun tushunarli. Bu matnlarning ko'proq insonlar tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi. Shayx murakkab diniy tushunchalarni oddiy hayotiy misollar orqali tushuntiradi.

5. Murojaat uslubi

Shayx matnda o'quvchi bilan muloqotga kiradi, masalan:

- "Aziz birodarlar," deb boshlanadigan nasihatlar.
- O'quvchini savol-javob usuli orqali fikrlashga chorlaydi. Bu uslub matnni jonli va samarali qiladi.

6. Qur'on va Sunnatga asoslanganlik

Shayxning barcha tavsiyalari Qur'on va hadis manbalariga asoslangan bo'lib, bu matnlarning ishonchliligini oshiradi. O'quvchi diniy manbalar bilan tanishibgina qolmay, ularni o'z hayotiga tadbiq etish imkoniyatini ham oladi.

Misollar: Kitobda shunday pragmatik masalalar yoritiladi:

- **Er va xotin huquqlari haqida:** Qur'ondagi "**Ayollar sizlar uchun libosdir va sizlar ular uchun libosdir**" (Baqara: 187) oyatini keltirib, o'zaro hurmat va mas'uliyat masalasini tushuntiradi.
- **Bolalar tarbiyasi:** Farzandlarni yoshligidan boshlab yaxshi xulq va odoblarga o'rgatish zaruriyatini hadislar bilan dalillaydi.

Xulosa. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "**Baxtiyor oila**" kitobi Qur'on va Sunnat asosida zamonaviy oilaviy muammolarga dolzarb yechimlarni taklif etadi. Pragmatik jihatdan bu matnlar insonlarni harakatga chorlash, oiladagi mehr-muhabbatni tiklash va jamiyatdagi axloqiy muammolarni bartaraf etishda muhim vosita hisoblanadi. Diniy matnlar zamonaviy oilaviy hayotda universal qo'llanma sifatida dolzarbligini saqlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

Asosiy manbalar:

1. Qur'on oyatlari (masalan, Rum: 21; Baqara: 187).
2. Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadisleri (Masalan, Buxoriy va Muslim to'plamlari).

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning boshqa kitoblari:
 - "Hadis va Hayot"
 - "Tafsiri Hilol"
2. Fiqhiy va axloqiy manbalar:
 - Imom Navaviy, "Riyoziy Solihin"
 - Imom G'azzoliy, "Ihyou Ulumiddin"
3. Zamonaviy oila masalalari bo'yicha:
 - Abdulloh Nasih Ulvon, "Tarbiyatul Aulad"
 - Yusuf Qardoviy, "Oila fi zilli al-Islam"

KRIMINOLOGIYADA JINOYATCHILIK KO'RSATKICHLARI

Abdullayev Navro'zbek Abdunazar o'g'li
tadqiqotchi

Annotatsiya: Jinoyatchilik tarkibi, umuman olganda, uni sifat jihatidan, ya'ni jinoyatchilikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflaydi. Jinoyatchilik tarkibi umumiy ko'rinishda jinoyatchilikni tashkil etuvchi qilmishlarning (ayrim qilmishlarning hamda ularning guruhlarining) ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, kriminologiya, jinoyatchilik tarkibi, jinoyatchilik dinamikasi, huquq, jinoyi miqdor

Аннотация: структура преступности в целом качественно характеризует ее, т. е. характеризует степень общественной опасности преступности. Состав преступности в общем виде отражает степень и характер общественной опасности деяний (отдельных деяний и их групп), составляющих преступность.

Ключевые слова: преступность, криминология, структура преступности, динамика преступности, право, криминальное количество

Annotation: the composition of crime, in general, characterizes it qualitatively, that is, characterizes the level of social danger of crime. The composition of crime in general terms reflects the degree and nature of the social danger of acts (certain acts as well as their groups) that constitute crime.

Keywords: crime, criminology, crime content, crime dynamics, law, criminal quantity

Har qanday hodisa, muayyan kompleks, tizimning tarkibi, ichki elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo etuvchi nisbatdir. Jinoyatchilik tarkibi - bu muayyan mamlakatda, mintaqada ma'lum davrda yoxud tarixiy bosqichda sodir etilgan barcha jinoyatlarning turlarga taqsimlangan majmuidir. Jinoyatlarning turlari bir qancha guruhlash belgilariga ko'ra aniqlanadi. Ularning eng muhimlari ijtimoiy-demografik, jinoyat-huquqiy va kriminologik belgilardir.

Jinoyatchilik uch asosiy ko'rsatkich - holati (darajasi), tarkibi va dinamikasi bilan o'lchanadi. Bundan tashqari, jinoyatchilikning yetkazilgan zarar hajmi yoki miqdori va xususiyati kabi qo'shimcha ko'rsatkichlar ham farqlanadi. Ba'zan butun jinoyatchilikka qarshi kurash harajatlari ham jinoyatchilik ko'rsatkichlari qatoriga kiritiladi. Jinoyatchilikning holati tushunchasiga ikki: tor va keng nuqtayi nazardan yondashish mumkin. Keng

ma'nodagi jinoyatchilikning holati tushunchasi nafaqat uning darajasini, balki tarkibi va dinamikasini ham qamrab oladi.

Jinoyatchilik tarkibi, umuman olganda, uni sifat jihatidan tavsiflaydi, ya'ni jinoyatchilikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflaydi. Jinoyatchilik tarkibi umumiy ko'rinishda jinoyatchilikni tashkil etuvchi qilmishlarning (ayrim qilmishlarning hamda ularning guruhlarining) ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini aks ettiradi. Shuning uchun ham jinoyatlarning og'irlik darajasiga ko'ra o'zaro nisbati (o'ta og'ir, og'ir, uncha og'ir bo'lmagan va ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar) jinoyatchilik tarkibining eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi JKning 15-moddasi). Jinoyatchilik tarkibi jinoyat-huquqiy belgilarga ko'ra boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha taqsimlanishi ham mumkin:

- a) JK Maxsus qismi boblari (moddalari) bo'yicha;
- b) ayb shakllari bo'yicha;
- v) jazoning xususiyati bo'yicha;
- g) ishtirokchilik shakli bo'yicha;
- d) takroriylik belgisiga ko'ra;
- e) subyektning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra (voyaga yetmaganlik, maxsus subyektlar, «professionallar» va h.k.).

Jinoyatchilik tarkibi kriminologik belgilarga ko'ra quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

- a) hududiy belgiga ko'ra (viloyatlar, tumanlar, mintaqalar yoki alohida obyektlar bo'yicha);
- b) xo'jalik yuritish, boshqarish yoki jamiyat hayoti tarmoqlari bo'yicha;
- v) xususiyati va motivlariga ko'ra (davlatga qarshi jinoyatlar, g'arazgo'ylik jinoyatlari, zo'ravonlik jinoyatlari, ekologiya sohasidagi jinoyatlar, xalqaro jinoyatlar va h.k.);
- g) jinoyat sodir etilgan vaqt va joyga ko'ra;
- d) jinoyat sodir etish qurollari (vositalari)ga ko'ra;
- e) tarqalganligiga ko'ra.

Jinoyatchilik tarkibi, ayniqsa, jinoyatchining shaxsiga nisbatan, ijtimoiy-demografik belgilar (jinsi, yoshi, kasbi, oilaviy ahvoli va h.k.)ga ko'ra ham taqsimlanadi. Kriminologiya fanida jinoyatchilikning to'liq tarkibi va noto'liq tarkibi farqlanadi. Jinoyatchilikning to'liq tarkibida uning majmui (massasi) mumkin bo'lgan barcha guruhlash belgilari bo'yicha taqsimlanadi.

Jinoyatchilikning noto'liq tarkibi esa ayrim zarur guruhlash belgilari nuqtayi nazaridan tahlil qilishni nazarda tutadi (masalan, butun massada qasddan va ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarning o'zaro nisbatini aniqlash uchun yoxud muayyan davrda jinoyat sodir etgan shaxslarning jinsi, yoshini aniqlash uchun).

Jinoyatchilik dinamikasi - muayyan davr (oy, chorak, yarim yillik, yil, besh yillik, o'n yillik, yigirma yillik va h.k.) oralig'ida umuman jinoyatchilikning hamda uning tarkibiy ko'rsatkichlarining o'sish yoki kamayish tomonga harakati. Jinoyatchilik dinamikasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning eng muhimlarini ikki guruhga: ijtimoiy omillar va yuridik omillar guruhlariga birlashdrish mumkin.

Ijtimoiy omillar - jinoyatchilik sabablari va unga olib kelgan sharoit, aholining demografik tarkibi, migrasiya va h.k.

Ikkinchi guruh - jinoiy va ma'muriy jazo tizimiga, qonunlarga kiritilgan, jinoiy yoki boshqa jazoga loyiq qilmishlar doirasini toraytiruvchi yoki kengaytiruvchi, muayyan jinoyatlar tasnifini o'zgartiruvchi o'zgartish va qo'shimchalar.

Jinoyatchilik dinamikasi jinoyatlar hisobini yuritish va ularni ro'yxatga olishning holati, huquqni muhofaza qilish organlari (surishtiruvchi, tergov va sud)ning, shu jumladan, jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va aybdorlarni fosh etish, jazoning muqarrarliligi prinsipini ta'minlash borasidagi samarali faoliyati bilan ham bog'liqdir.

O.L.Avanesov ta'kidlashicha: «Jinoyatchilik darajasi muayyan hududda sodir etilgan jinoyatlar miqdoridan kelib chiqib, shu hududda yashaydigan aholi soniga nisbatan hisoblanadi». Daraja ko'rsatkichlari faqat nisbiy raqamlarda ifodalanadi. Jinoyatchilik darajasini yanada aniqroq aniqlash uchun butun aholini emas, balki vakillari amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq jinoyat uchun javobgarlikka tortilishi mumkin boigan yosh gumhlarimgina hisobga olish zarur.

Jinoyatchilikning holatini aniqlashda muayyan davr ichida (falon yilning falon oyidan falon yilning falon oyigacha) sodir etilgan jinoyatlar emas, balki muayyan sanaga (davrga) qadar sodir etilgan jinoyatlar ko'rsatkichi olinsa, o'rinliroq bo'ladi. Bu nafaqat jinoyatchilikning muayyan sanaga qadar bo'lgan holati to'g'risidagi masalani echish, balki jinoyatchilikning muayyan sanaga qadar bo'lgan holatini jinoyatchilikning muayyan davrdagi dinamikasidan farqlash uchun ham zarurdir.

Jinoyatchilikning holati sodir etilgan barcha jinoyatlar va ularni sodir etishda aybdor shaxslar miqdori bilan belgilanadi. Jinoyatchilikning holatini mutlaq miqdorda ham, koeffisient miqdorida ham aniqlash mumkin. Jinoyatlar miqdorini aniqlashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

a) sud hukmi bilan tugallangan jinoyat ishlari;

b) aybdor shaxslar jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan (amnistiya bo'yicha yoki jinoiy jazo tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari yoki tarbiyaviy yo'sindagi choralar yoxud ma'muriy ta'sir choralari bilan almashtirilishi munosabati bilan) jinoyat ishlari;

v) ochilmagan, lekin mavjud ma'lumotlarga ko'ra sodir etilgan jinoyatlar.

Jinoyatchilaming umumiy miqdorini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi:

a) mahkumlar haqidagi ma'lumotlar;

b) jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan shaxslar haqidagi ma'lumotlar.

Jinoyatchilik holati nafaqat miqdoriy belgilar, balki sifat belgilari, ya'ni: tarkibiy xususiyatlari, jinoyatlardan ko'rilgan zarar, iqtisodiy, uyushgan, takroriy yoki boshqa jinoyatchilik darajasi bilan ham tavsiflanishi mumkinki, bu jinoyatchilik tarkibini tahlil qilishda mufassalroq o'rganiladi.

Adabiyotlar:

1. Абдусаломов М., Каракетов Ю. Ответственность за вымогательство. Т.: 1997. - СП.

2. Абдухалимова М. и др. Проблемы защиты прав женщин против насилия в Наманганской области. //Ж. Женщины Центральной Азии. 2001, Спец. выпуск.

3. Кудрявцев В.Н. Генезис преступления. Опыт криминологического моделирования. - М.. 1998.

4. Хеккаузен Х. Мотивация и деятельность. Том 1. ~ М., 1986.

5. Карпец И.И. Проблемы преступности. - М.. 1969.

INNOVATIVE
WORLD

4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligidagi hikoyalar ustida ishlashda rolli o'yinlar va dramatizatsiyalardan foydalanish.

G'anijonova Maxmudaxon
ADPI Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
201-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda ta'lim va tarbiyaga berilgan e'tibor hamda 4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligidagi hikoyalarda rolli o'yinlar va dramatizatsiyalardan foydalanishning samarali jihatlari aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, darslik, hikoya, rolli o'yinlar, dramatizatsiya.

Abstract: This article discusses the attention given to education and upbringing in our country, as well as the effective aspects of using rolling games and dramatization in the stories of the 4 th grade "Reading Literacy" textbook.

Key words: Education, upbringing, textbook, story, rolling games, dramatization.

Hozirgi kunda yurtimizda eng rivojlanib, takomillashib borayotgan soha bu-ta'lim va tarbiya sohasidir. Biz buni yosh avlodlarda to'la-to'kis shakllantirishimiz uchun ilk poydevorni ularning yoshligidan qo'yib borishimiz, boshlang'ich sinfdanoq bolalarning ta'lim va tarbiyasini yetuk darajalarga olib chiqishga harakat qilmog'imiz darkor. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni- bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi", deya o'z nutqlarida takror va takror aytib o'tganlari esa bu fikrlarimizning naqadar ahamiyatga molik ekanligini ko'rsatib beradi. Prezidentimiz bundan tashqari boshlang'ich ta'lim va ta'lim tizimidagi islohotlar, o'quvchilarga sifatli ta'lim berish masalalariga ham alohida e'tibor qaratgan. Shuning uchun ham yurtimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida "Yangi avlod darsliklari" joriy qilindi. Ushbu darsliklar o'zining har jihatdan rang-barangligi va mantiqiy mushohadaga boyligi bilan ajralib turadi. Xususan, biz Novda nashriyoti tomonidan joriy etilgan 4-sinf "O'qish savodxonligi" kitobiga to'xtalsak, bu kitobda o'quvchilar dunyoqarashini barcha jabhalarda rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar mavjud. Darslikda she'rlar, ertaklar, jamiyatimizning yetuk shaxslari bo'lgan shoir va yozuvchilar suratlari, hayoti va ijodiy faoliyatlardan parchalar keltirilgan. Bundan tashqari kitobimizga "Arining qasosi" nomli 2 qismli hikoya, "Tog'lar qanday paydo bo'lgan?", "Qum qayerdan paydo bo'lgan?", "Nok", "Qoziq", "Tarbiya", "Ona kaklik" kabi bir qator hikoyalar kiritilgan. Biz ularning har birini o'qib chiqar ekanmiz, bu hikoyalarni

tanlashda darslik mualliflari naqadar to'g'ri qaror qabul qilganliklariga guvoh bo'lamiz. Chunki bularning har birida 4-sinf o'quvchilariga mos so'zlardan foydalanilgan hamda kichik hikoya bo'lishiga qaramay, bolalar uchun bir o'qishdayoq o'zining tarbiyaviy ta'sirini o'tkaza oladi. Hikoya-epik tur janrlaridan biri. Kichik hajmli bu badiiy asar kishi hayotidagi ma'lum voqeaning muhim tomonlarini umumlashtirib tasvirlaydi. Hikoyanavisning mohirligi shundaki, u qaynoq hayot qozonidan bir epizodni olib, yashashning muhim, tipik tomonlarini shu ixcham shaklga sig'diradi. Darslikdagi O'zbekiston Xalq Yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Qoziq" hikoyasi diqqatga sazovor. Bu hikoya 5-sinf, ya'ni hikoyani o'qiyotgan o'quvchilarimiz bilan deyarli tengdosh bo'lgan bola tilidan yozilgan. U qishloq bolalarining kundalik yumushlari, o'yin o'ynash bilan birga mol boqqani borishlari bilan boshlanadi. Hikoyada birorta ism ham keltirilmagan, ammo shunday sof tilda yozilganki, o'qisangiz bola bilan birga yurgandek his qilasiz o'zingizni. Shunday qilib, bola jiydazorga mol boqqani boradi, ammo uning sigiri yuvosh bo'lsa ham, qozig'ini sug'urib, daydib ketadigan odati bo'ladi. Ularning qozig'i yog'ochdan yasalgan va har qoqilganda boshi yedirilib sinib ketadi. Shunday kunlarning birida u boshida halqasi va uzilib qolgan bir ikki qarich arqoni bor temir qoziq topib oladi. O'rtoqlaridan kimning qozig'i ekanligini so'raydi va egasi chiqmagach, sigirini unga bog'lab qo'yadi. Endiyam sigir qochib ko'rsinchi. Ammo ertasiga dadasi bolaga qovog'ini uyib, qoziqni qayerdan olganligini, uning manzilini so'rab-surishtira boshlaydi va qahramonimizning bir o'ziga qoziqni olgan joyiga tashlab kelishini buyuradi. Akasi birga bormoqchi bo'lganda ham dadasi rozi bo'lmaydi, kech bo'lishiga qaramay bola jiydazor tomon qo'rquv bilan yo'lga tushadi va qoziqni Qonqus anhuri bo'yidagi daraxt tagiga tashlab keladi. So'ng oradan bir oycha vaqt o'tgach, dadasi mana shu masalaga qaytib: "Sen topib olgan qoziqqa bog'langan sigir arqonini uzib, adashib ketgan bo'lsa, yoki birov o'g'irlagan bo'lsa-da, qoziq sening uyingdan chiqsa, egasi seni o'g'ri gumon qilsa, nima bo'ladi?" deb aytadi. Hikoyaga shu joyda yakun yasaladi va o'quvchilar o'zlari tengqur qishloq bolasining hayotida bo'lgan oddiy bir kunlik voqea, ammo kelajakda katta muammolarni oldini olishga qaratilgan bir hikoya bilan tanishadilar. Bolaning birgina o'ylamay qabul qilgan qarorining qanday natijalarga olib kelishini o'z dadasi tushuntirib beradi. Aslida bola unchalik yomon ish ham qilgani, birovning narsasini o'g'irlagani ham yo'q edi. Ammo mana shu topib olgan narsasini uyga olib kelishining o'zi ham to'g'ri ish emasligi dadasi vositasida ko'rsatib berilgan. O'zbekning haqiqiy oilalari mana shunday, ularda ota-ona hamisha farzandlarini to'g'ri yo'lga boshlaydi va har qanday muammolarini oldini olishga yordam beradi. Darslikda hikoyadan so'ng maxsus savol va topshiriqlar, o'quvchilar uchun izohli lug'at berilgan. So'ng hikoyaga mos maqollar "Bola ko'rganini qilar, Ota bilganini",

“Ota-bola- bir bog‘,Biri –gul,biri-bog‘bon”,“Ota-aql,ona-idrok” kabi maqollar keltirilgan.Biz bu hikoyada targ‘ib qilingan g‘oyani bolalarga to‘laonli yetkazib berishimiz uchun rolli o‘yinlar va dramatizatsiyalardan foydalanishimiz mumkin.Rolli o‘yinlar va dramatizatsiya-o‘quvchilarni faollikka undovchi,ularning ijodiy fikrlashi va nutqiy kompotensiyalarini rivojlantiruvchi muhim pedagogik metodlardan biri. Ushbu usullar,ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning qiziqishini oshirish,ularning mustaqil fikrlashini shakllantirish va real hayotga tayyorlashda samarali hisoblanadi.Biz bolalarni muloqotga,jamoa bilan ishlashga o‘rgatish,hayotiy vaziyatlarni tushunish va hal qilishga yordam berishimiz uchun ularga rollar berishimiz ,o‘quvchilarning personajning o‘rnida bo‘lib,ular qanday qilib vaziyatlarga reaksiya berishini tasavvur qilishimiz,diologlar orqali o‘z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashini ko‘rib ,kuzatishimiz mumkin. Dramatizatsiya orqali esa mana shu hikoyamiz sahnalashtiriladi.Buning natijasida ular mana shu vaziyatda, hikoyamiz qahramoni bo‘lmish bolaning o‘rnida o‘zlarni ko‘radi, mana shu holatda bo‘lgaanda o‘zlari nima qilishlarini tasavvur qilib ko‘rishadi va hikoyani tag-tomirigacha tushunib yetadilar. Bu metod orqali bolalarda nutq madaniyati rivojlanadi,mana shunday badiiy hikoya va ertaklarga qiziqishlari ortib boradi. Hikoyaning muhim qismlarini sahnada jonlantirish orqali o‘quvchilar darsni yanada qiziqarli va jonli tarzda o‘rganadilar.Ular shu metod orqali o‘z iste’dodlarini kashf qilishlari va kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasblarini tanlab olishlari mumkin.Shuningdek, hikoyalar va darslik materiallarining jonli va ko‘rgazmali tarzda o‘qitilishi o‘quvchilarning diqqatini jalb etadi va ularni matnga yanada qiziqtiradi.Biz birgina “Qoziq” hikoyasida rolli o‘yinlar va dramatizatsiyalardan foydalanib, bu hikoyani bolalar ongida o‘zining ma’naviy va tarbiyaviy ta’siri bilan birgalikda butun umr qoldirishimiz mumkin.Xulosa qilib aytganda, 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida berilgan barcha hikoyalar ta’limiy va tarbiyaviy jihatdan yuksak bo‘lib,ularning har birini o‘qitishda pedagogdan ulkan mahorat,yetuk salohiyat va biz ta’kidlab o‘tgan metodlarni bilishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev saylov oldi dasturi
2. U.B.Aydarova, N.K.Azizova 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligi.Toshkent:“Novda edutainment”.2023
3. G‘.Ernazarov.Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.Toshkent.”Ilm-ziyo”.2011

FAXRIYOR SHE'RLARIDA OKKAZIONAL SO'ZLAR

Umarova Mohichehra

Andijon davlat universiteti 3-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: **H.R.Zakirova** ADU, professor.

Annotatsiya. Ushbu maqolada okkazional so'zlarning yasalihi o'rganiladi, izohlanadi va ma'nosi ochiqilanadi. Shuningdek, ularning she'riy asarlar tarkibida (Faxriyor she'rlari misolida) qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *okkazional ma'no, uzual ma'no, okkazionalizmlar, so'z yasalihi, okkazional yasalmalar, muallif nutqi neologizmlari.*

Tilning boyishi yo kambag'al holatga kelib qolishi jamiyat bilan, undan foydalanuvchi insonlar bilan bog'liq. Uni boyitishda tilshunos olimlar bilan bir qatorda shoir- yozuvchilar ham o'z hissalarini qo'shadilar. Ana shunday tilimizning noyob, g'oyat go'zal leksik qatlamidan o'z o'rnida foydalanadigan shoirlarimizdan biri Faxriyordir. Uning she'rlariga xos bo'lgan yana bir hodisa okkazional so'zlarning ko'p o'rinlarda qo'llanilishidir.

Uzual va okkazionallik atamasi va nazariyasi ilk bor tilshunos olim N.I Feldman tomonidan qo'llangan. Okkazional so'zi lotincha "occosinalis" so'zidan olingan bo'lib, "tasodifiy" degan ma'noni anglatadi. "Usual" lotincha "urf-qoida", "qo'llash" degan ma'noni bildiradi va uzual ma'no okkazional ma'noga zidlanadi.

So'zlarning uzual ma'nosi deganda ayni bir so'zning tilning lug'at tarkibiga kirgan o'z va ko'chma ma'nolarini tushunamiz. So'zlarning uzual ma'nosi barcha til egalari uchun birdek tushunarli bo'ladi.

Okkazionalizmlar esa o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

1. Okkazional so'zlar.
2. Okkazional ma'noga ega bo'lgan so'zlar.

Quyidagi jadval asosida ularning bir qancha farqli jihatlarini ko'rishimiz mumkin:

<i>Okkazional so'zlar</i>	<i>Okkazional ma'noga ega bo'lgan so'zlar</i>
Ayni bir muallif tomonidan yasalgan yoki o'ylab topilgan	Tilda avvaldan mavjud, aynan bir kishi yasamagan, o'ylab topmagan
G'ayrioddiyligi matndan tashqarida, birikma tarkibida kelmasa ham anglashilib turadi	Faqat ayni bir birikma tarkibida okkazional ma'noni hosil qiladi

Tilning lug'at tarkibiga kirmaydi, yoki kirishi juda qiyin (ko'pchilik tomonidan uzoq vaqt ommaviy tarzda qo'llansagina kirishi mumkin)

Tilning lug'at tarkibida mavjud, faqat okkazional ma'nosi mavjud bo'lmaydi

Jadvalga ko'ra okkazional so'zlar ayni bir muallifning (odatda yozuvchi va shoirlar) ijod mahsuli bo'lgan, ko'p hollarda tilning lug'at tarkibiga kirmagan, ommaviy tarzda qo'llanib, til egalariga tanish so'zga aylanib ketsagina kirishi mumkin bo'lgan, g'ayriodatiy yasaliş tizimiga ega bo'lgan so'zlardir. Okkazional so'zlar muallif nutqi neologizmlari deb ham ataladi. [1]

Ushbu maqolada esa Faxriyor she'riyatida uchrovchi bir qancha okkazional so'zlarni ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz.

*Uddakorlar
endi ixtiyorlarni*

bir-bir sotib olar odamlarning qo'lidan.[1,146]

Ko'rinib turganidek, yuqoridagi she'riy parchada qatnashgan *uddakorlar* so'zi okkazional so'z sanaladi. O'zbek tilida "uddasidan chiqmoq", "uddalamoq" shakllari faol qo'llanib keladi va bir ishni qiyinchilik bilan bo'lsa-da, bajara olish ma'nosini anglatadi. *Uddaburon* so'zi esa izohli lug'atda "har ishni udda qila oladigan, eplay oladigan; epchil, abjir, tadbirkor" degan ma'nolarni anglatadi. Masalan,

Uddaburon ayol. Homidxo'ja Mirvalining uddaburon bola ekanini yaxshi bilardi. (S. Ahmad, Saylanma).

"Udda" so'zining o'zi esa tilimizda kamdan-kam holatlardagina qo'llanadi va mas'uliyat, javobgarlik, kafillik ma'nolarini anglatadi. She'riy parchadagi *uddakorlar* so'zidagi ma'noni "uddaburonlar" so'zi orqali berish ham mantiqan mumkin edi, lekin bu holda ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan mazmun yuzaga chiqmay qolgan bo'lardi. *Uddakorlar* so'zi orqali uddaburondan ham tadbirkor, abjir odam qiyofasi ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'ladi va o'quvchida o'zgacha taassurot qoldiradi.

*Tandir hovuriday guppillab
yuzga qoplanadi damlangan havo.
Olazarak nigohlar kesar irkit havoni
Oynajomda suzib yurgan baliqlar
yoxud
Hasad mikroblariday
Unda
Yuzar milliardlab nigoh,
egali, egasiz. [1,138]*

Bu parchadagi *oynajom* so'zi kompozitsiya usuli bilan yasalgan okkazional so'zga misol bo'la oladi. Shoir shunchaki "akvarium" so'zini ishlatmasdan, uning o'zbek tiliga xos variantini hosil qiladi. Akvariumning oynadan bo'lishi va jomga shaklan o'xshab ketishi so'z yasashiga asos bo'lgan deyishimiz mumkin.

*Saroyni zabt etgan navkarlar shoh tojini
tepib o'ynaganday taxtning poyida
oyoqlar ostida o'ralashadi
tojivirus degani. [1,146]*

Yuqorida *tojivirus* so'zi "коронавирус" so'zini qisman tarjima qilish orqali yasalgan. Shoirning o'zbek tili imkoniyatlarini yaxshi anglab yetganini, ziyrak nigohini ushbu misol orqali yana-da yaxshiroq ko'rishimiz mumkin.

*Unda nega sendan izladim
men o'zimni, qonimga tashna ?
Imkonlandim, imkonsizlandim
goh intiqib, gohida qaqshab. [1,17]*

Ushbu misrallardagi *imkonlanmoq*, *imkonsizlanmoq* so'zlari imkon topmoq va topmaslik fe'llari bilan o'rin almashib, yana-da ma'no kuchayishiga sabab bo'lgan.

*Dunyoning kamini muhabbat bilan
to'ldirmoq istagan malika — gulbaxt,
sotib ololmayman muhabbatingni
merosdan benasib men bir valiahd. [1,22]*

Bu parchada *gulbaxt* so'zi ham kompozitsion usulda yasalgan okkazional so'zga misol bo'la oladi. Bilamizki, *gul* so'zi chiroyli, go'zal, ko'rkam kabi sifat so'z turkumiga mansub so'zlar bilan assotsiativ munosabatda turadi va ko'p hollarda she'riyatda o'rin almashtirib qo'llanadi. *Gul* so'zi vositasida kompozitsiya usulida "gulyuz" sifati yasalgan, ammo bu so'zning yuqoridagidek mavhum ot bilan kompozitsiya usulida so'z yasashiga misollar deyarli kuzatilmaydi, yoki juda kam hollarda bunday yasalmalarni uchratamiz. Bu so'z "malika" so'ziga nisbatan sifatlovchi vazifasini bajargan va o'zbek tilida odatiy qo'llaniladigan "toleyi go'zal" birikmasiga muqobil tarzda foydalanilgan.

*Hech vaqo yo'q paykaldan bo'lak
Kuzdan bo'lak hech nimarsa, oh !
Paxta esa yutqiziq uchun
Dalalarga ekilgan bayroq. [5,58]*

Bu misolda esa yutqiz fe'lga *-iq* narsa oti yasovchisi qo'shilib yangi so'z yasalgan. *Yutqiziq* so'zi xuddi *yutuq* so'zi kabi yasalganini anglash qiyin emas : "yutmoq" va "yutqizmoq" so'zlari bir-biriga zid ma'noda turadi va yutuq

sodda yasama oti hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud, shoir tarafidan "yutqizmoq" fe'liga

-iq affiksi qo'shilishidan yangi ot yasalgan.

Sirtmoq halqasidan ko'rinayotgan

Muzchil osmon, qahraton osmon... [4,154]

Ushbu misralarda esa *muzchil* so'ziga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, odatda mavhum otlarga qo'shiladigan *-chil* sifat yasovchi affiksining (dardchil) aniq otga qo'shilganini kuzatish mumkin.

Daraxtlar uzlatgir bog'lar

Adirlarda yashil izdihom

Yuraklarda ishqlanar dog'lar

Musibatlar arir — kuz degan. [5,24]

Bu misralarda *daraxtlanmoq* so'zi bahor kelishi bilan bog'larda daraxtlarning yashillikka burkanib, jonlanishi ma'nosini anglatga, *ishqlanmoq* so'zi yurakda ishq paydo bo'lishini bildirib kelgan, deyish mumkin.

Yurak uzlatninishin Yassaviy kabi

yolg'onchi dunyoni kechirib yashar.[5,17]

"Xonanishin" so'zi bir joydan, uydan chiqmasdan tarki dunyo qilib yashaydigan odam degan ma'noda ishlatiladi, muallif esa xuddi shu ma'noda *uzlatninishin* so'zini yasagan.

Seni ko'rdim, faryodlandim,

lekin kuydim jimgina[1,30]

Yuqorida *faryodlanmoq* so'zi faryod qilmoq so'zi o'rnida qo'llangan.

Senga ne qanoat ayonsizlikdan

Taskin bo'larmikin yov ongsizligi. [1,53]

Ushbu misrada *ayon* sifatiga *-siz* affiksi qo'shib yangi sifat hosil qilingan.

Na sening, na biror o'zganing

gunohlari evaziga kelmagan

taqdir atalmish

sababsiz va tinimsiz iztiroblar

manglayga tirnaladi fojia bo'lib

vaqtlana boshlar fojia. [1,61]

Vaqtlanmoq so'zi "fojia" so'ziga nisbatan kesim vazifasini bajargan va fojining boshlanishi yoki davom etishi tarzida tushunish mumkin.

Vaqt muvaqqatligi

abadiydir ko'ngildagi suygi dog'iday

Bir yigit umrini qamrar bus-butun. [1,61]

Bu misrada *suygi* so'zi xuddi "sevgi" so'zi kabi yasalgan va shu so'zning o'ziga ma'nodosh qilib qo'llangan. Xuddi shu so'z qo'llangan yana bir parchani olaylik :

Suygiga aldandim, aldandim yomon

Suygi xudo bo'lib meni aldadi

Yuzimni qibladan burdi gul tomon. [1,91]

Har ikkala misolda ham sevgi so'zining o'rniga qo'llangan ushbu so'z she'rning ta'sirchanligini yana-da oshirgan.

kechkining

kechirining qoldig'i

kechinma [1,64]

-gi affiksi bilan yasalgan yana bir okkazional so'z "kechirgi" so'zidir. *Kechirmoq* so'zidan -im affiksi bilan kechirim oti yasalishi ma'lum. Shoir misralarida esa bu variant o'rniga *kechirgi* so'zi qo'llangan va o'ziga xoslikka, betakrorlikka erishgan.

Oyloq kecha, muhabbat kechar,

mendan kechar, undan kechmasman.

Oy nuridan kiyimlik bichar-

o bu hijron, tokay yechmasman. [1,105]

Ushbu parchada qo'llangan *oyloq* so'zining ma'nosi she'rning keyingi qismlarida aniqlashgan. Bu so'zning ma'nosini oy to'lgan, oydin so'zlariga yaqin ekanini ko'ramiz, biroq bunday ifoda uslubi boshqa hech qaysi shoirda uchramaydi.

So'z yasallish usullari:	Misollar :
<i>Affiksatsiya</i>	<i>uddakor, imkonlanmoq, yutqiziq, muzchil, daraxtlanmoq, uzlatgir, ishqatlanmoq, uzlatnishin, faryodlanmoq, ayonsizlik, vaqtlanmoq, suygi, oyloq va kechirgi</i>
<i>Kompozitsiya</i>	<i>oynajom, gulbaxt, tojivirus</i>

Faxriyor ijodida okkazional so'zlarning affiksatsiya usulida yasallishi kompozitsiya usuliga qaraganda ko'p uchraydi.

Affiksatsiya usulida yasalgan okkazional so'zlar monitoringi :

N°	Qo'shimcha	Misol	Soni	Foizi
1	-lan	<i>ishqlanmoq</i>	6	46,1 %
2	-gi	<i>suygi</i>	2	15,3 %
3	-kor	<i>uddakor</i>	1	7,6 %
4	-chil	<i>muzchil</i>	1	7,6 %
5	-gir	<i>uzlatgir</i>	1	7,6%
6	-siz	<i>ayonsiz(lik)</i>	1	7,6%
7	-iq	<i>yutqiziq</i>	1	7,6%

Demak, Faxriyor o'z she'rlarida -lan affiksi orqali eng ko'p okkazional so'zlarni yasagan va bu affiks shoir she'rlarida fe'l so'z turkumiga oid okkazional so'zlarni yasagan yagona affiks sanaladi.

Bulardan *uddakor, muzchil, uzlatgir, uzlatnishin, oyloq, gulbaxt* so'zlari sifat so'z turkumiga oid bo'lsa, *imkonlanmoq, daraxtlanmoq, ishqlanmoq, faryodlanmoq, vaqtlanmoq* ao'zlar fe'l so'z turkumiga kiradi va hammasi bir xil *-lan* affiksi bilan yasalgan. Bundan tashqari, ot so'z turkumiga mansub so'zlar ham bor : *yutqiziq, ayonsizlik, suygi, kechirgi* (mavhum otlar), *oynajom, tojivirus*(aniq otlar).

Okkazional so'zlar nafaqat she'r misralarida, balki bir qancha she'rlarga sarlavha sifatida ham qo'llangan. Bir she'rga "*Uchlanish*" nomi berilgan. Bu she'r uch qismdan iborat bo'lib, har uchchala qismidan alohida mazmun keltirib chiqarish mumkin va *uchlanish* degan so'zning o'zi ham shu she'r qismlariga ishora qilgan. She'rning mazmunidan bu so'zning *ikkilanmoq* fe'lini yanada bo'rttirish uchun shunday yasalganini tushunamiz. Bundan tashqari "*Aksilfalsafa*" va "*Aksilekologiya*" kabi oklazonal so'zdan tarkib topgan she'r sarlavhalarini ham ko'rishimiz mumkin.

She'riy asarlarda okkazional yasalmalarning ishlatilishi adabiyotshunoslikdagi formal maktab xususiyatlariga borib taqaladi. Bunday so'zlarni yasay olish, badiiy asarlarda qo'llash ijodkorning o'ziga xosligi, yuksak mahoratidan darak beradi, badiiy asarning ifodaviyligini oshiradi. Okkazional so'zlar she'rlarda qo'llaniladigan ifoda vositalari, o'xshatish, mubolag'a, zidlash kabilar qatori she'rning badiiy jozibasini oshirishga xizmat qiladi. Faxriyor she'rlarida bu kabi so'zlarga misollar yana ko'plab topiladi. Ularni alohida tahlil qilish orqali esa she'rning mazmuniga yana-da chuqurroq kirib borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Faxriyor. Geometrik bahor. -Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Universitet, 2006.
4. Фахриёр. Аёлгу. -Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни бош ТАҲРИРИЯТИ, 2000.
5. Фахриёр. Дарднинг шакли. -Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни бош ТАҲРИРИЯТИб 2000.
6. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Тошкент, 1985.
7. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Тошкент, 1998.
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/muallif-nutqi-neologizmlari-sirojiddin-sayyid-she-rlari-misolida>.

TO'QIMACHILIK SANOATIDA KLASTERLARGA ASOSLANGAN MILLIY IQTISODIYOT

Anvarov Sherzodbek Dilmurod o'g'li

Tadqiqotchi

Annotatsiya: O'zbekiston to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda yetakchi rol o'ynashi va uning tarkibida muhim o'rin egallashi mumkin bo'lgan asosiy tarmoqlardan biridir. Jahon iqtisodiyotini tavsiflovchi globallashuv jarayonlari va xalqaro raqobatning kuchayishi klasterlarga asoslangan siyosatga o'tishdan iborat bo'lgan raqobatbardoshlikni boshqarish paradigmasini o'zgartirishning obyektiv shartiga aylandi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, globallashuv jarayonlari, iqtisodiyot, xalqaro raqobat, klaster, xorijiy tajriba, milliy iqtisodiyot.

Аннотация: текстильная промышленность Узбекистана является одной из основных отраслей, которая может играть ведущую роль в развитии национальной экономики и занимать важное место в ее структуре. Процессы глобализации и усиление международной конкуренции, характеризующие мировую экономику, стали объективным условием смены парадигмы управления конкурентоспособностью, заключающейся в переходе к кластерной политике.

Ключевые слова: текстильная промышленность, процессы глобализации, экономика, международная конкуренция, кластер, зарубежный опыт, национальная экономика.

Annotation: the textile industry of Uzbekistan is one of the main industries that can play a leading role in the development of the national economy and occupy an important place in its structure. Globalization processes characterizing the world economy and increased international competition have become an objective condition for changing the paradigm of competitiveness Management, which consists in the transition to cluster-based policies.

Keywords: textile industry, globalization processes, economy, international competition, cluster, foreign experience, national economy.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari va xalqaro raqobatning kuchayishi klasterlarga asoslangan siyosatga o'tishdan iborat bo'lgan raqobatbardoshlikni boshqarish paradigmasini o'zgartirishning obyektiv shartiga aylandi. Globallashuv natijasida ishlab chiqarish omillari harakatchan bo'lib bormoqda, mamlakatlar o'rtasidagi raqobat kuchaymoqda, shuning uchun nafaqat innovatsiyalar va ta'lim, balki korxonalar o'rtasidagi

munosabatlar ham raqobatchilardan ustunlikni rivojlantirish va saqlab qolish uchun muhimdir.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, klasterlik yondashuv butun dunyoda ham milliy, ham mintaqaviy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirish siyosati sifatida tan olingan. Klaster yondashuvini amalga oshirish bo'yicha tadbirlar klasterlar sifatida belgilanishi mumkin va bu davlat va jamoat institutlari tomonidan korxonalarni klasterlarga birlashtirish va ular o'rtasida norasmiy munosabatlar va tarmoq hamkorligini o'rnatish maqsadida amalga oshiriladigan tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasidir. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi ko'plab rivojlangan va hukmron mamlakatlarning tajribasi raqobatbardoshlikka erishish va jahon bozorlariga chiqishga birinchi navbatda izchil islohotlar, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, yangi yuqori texnologiyali korxonalar va tarmoqlarning jadal rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnik yangilashni jadallashtirish orqali erishish mumkinligini aniq ko'rsatmoqda. mavjud imkoniyatlar.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda yetakchi rol o'ynashi va uning tarkibida muhim o'rin egallashi mumkin bo'lgan asosiy tarmoqlardan biridir. Sanoatning jozibadorligi barqaror xom ashyo bazasining mavjudligi, paxta tolasining yuqori sifati, energiya resurslarining arzon narxlari, malakali mehnat resurslari, qo'llab-quvvatlash va respublika hukumati tomonidan yaratilgan qulay sharoitlar bilan belgilanadi.

Klaster yondashuvining "otasi" "Mamlakatlarning raqobatdosh afzalliklari" asari muallifi M.Porter hisoblanadi. Aynan shu asarida u ba'zi hududlar klasterlar tufayli boshqalarga qaraganda yaxshiroq rivojlanayotganini ta'kidlaydi. Shu bois klasterlar hududlar iqtisodiy siyosatining yangi elementiga aylandi. M.Porterning fikricha, klaster sinergiya asosida ishlaydi, bular o'zaro bog'liq bo'lgan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, tegishli tarmoqlardagi firmalar, shuningdek, ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlarning (masalan, universitetlar, standartlashtirish) geografik jihatdan to'plangan guruhlar. agentliklar, shuningdek, savdo birlashmalari) raqobatlashadi, lekin ayni paytda birgalikda ishlaydi.

Biznes vakillari global maqsadga erishish — nafaqat o'z biznesini, balki butun mintaqani rivojlantirish, o'sish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash uchun o'z raqobatchilari bilan hamkorlik qilish va birlashishga tayyor bo'lishlari kerak. Sanoatning rivojlanishiga yordam beradigan geografik konsentratsiya yoki sharoitlar, iqlim, biznes vakillarining yetarli soni va ishlab chiqarishning muayyan ixtisoslashuvi ham muhim hisoblanadi. Klaster biznesni rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni

ta'minlashi kerak: infratuzilmani yaxshilash, ta'limni rivojlantirish, ichki va tashqi aloqalarni o'rnatish. Klasterdagi asosiy narsa — bu Synergy, ya'ni yaxshiroq bo'lish uchun umumiy maqsad ekanligini ta'kidlash mumkin. To'qimachilik korxonalarini rivojlantirishga klasterlik ilmiy yondashuvning afzalliklari ko'plab sinergik effektlardir. I.Ansoff sinergetik effektlarni kompaniyaning qo'shimcha foyda olish yo'nalishlariga muvofiq tizimlashtirdi. U savdo, operatsion, investitsiya va boshqaruvning sinergik ta'sirini ajratib ko'rsatdi. Boshqaruvning sinergiyasi yangi mahsulotlarni ishlab chiqish yoki yangi sanoatga kirish vaqtida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, ilgari to'plangan tajriba va bilimlar korxona yangi raqobat muhitiga kirishda paydo bo'ladigan yangi muammolarni hal qilishga yordam beradi. Boshqaruv malakasi raqobatdosh ustunlikning eng muhim manbaidir. To'qimachilik sanoatida klasterlashtirish mikro darajada, to'qimachilik sanoatida, biznesni tashkil etish va yuritishda, xom ashyo va oraliq iste'mol materiallari (kimyoviy, shtapel tolalar, paxta, iplar, gazlamalar) importiga bog'liqlik mavjuddir. Xomashyo va oraliq iste'mol tovarlari narxlari tannarx zaxiralariga ta'sir qiladi va shunga mos ravishda xarajatlarni kattalashtiradi, bu esa to'qimachilik ishlab chiqarishining tannarx komponentini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Butun jahon intellektual mulk tashkiloti tasnifiga ko'ra, intellektual mulkka asoslangan ijodiy sohalar (reklama, kolleksion, kino sanoati, musiqa va boshqalar), sahna san'ati, nashriyot, dasturiy ta'minot, radioeshittirish, tasviriy va grafika san'ati, tegishli sanoat (raqamli texnologiyalar, musiqa asboblari, nashriyot, fotografiya san'ati) va qisman mualliflik huquqi bilan himoyalangan sanoat (arxitektura, engil sanoat, mashinasozlik, moda, uy-ro'zg'or buyumlari, o'yinchoqlar) ijodkorlik tarmoqlari modellari ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmat ijodkorlikning muhim qismini o'z ichiga olgan tarmoqlarni hisoblanadi. To'qimachilik sanoatida ijodiy tarmoqlarni joriy etishning samaradorligi quyidagilar bo'lishi mumkin:

- sanoat mahsuldorligini oshirish, yangi bozorlarga chiqish va jozibadorligini oshirish;

- aholining ijtimoiy harakatchanligi darajasida investorlar uchun hamkorlikning yangi mintaqalararo shakllarini yaratish, ijodiy klasterlarni shakllantirish, ijodiy tadbirkorlikni rivojlantirishni faollashtirish, ilmiy-tadqiqot va ta'lim faoliyati intensivligini oshirish, madaniy sohadagi hamkorlikni takomillashtirish,

Sanoatda konseptual yondashuvlarning zamonaviy rivojlanishida raqobatni rivojlantirish nazariyalariga alohida o'rin berilishi kerak.

To'qimachilik sanoati korxonalari uchun, birinchi navbatda, jahon bozori va innovatsion rivojlanishning texnologik tendensiyalarini hisobga olgan holda, aqlli ixtisoslashuv asosida sanoatni rivojlantirishni strategik

rejalashtirish tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish haqida gapirish kerak. O'ylaymizki, to'qimachilik ishlab chiqarishni tashkil etishda Smart yondashuvlar yordamida xususiyatlarni o'zgartirish uchun ichki va tashqi rag'batlarni boshdan kechiradigan faol "aqlli" materiallardan foydalangan holda aqlli kiyimlarni yaratish orqali texnologik yoki innovatsion yutuq ta'minlanadi. To'qimachilik sanoatining innovatsion rivojlanishi yuqori sifatli raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish va undan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Aynan innovatsion mehnatdan foydalanish, ya'ni yangi ilg'or bilimlar, malaka va ijodiy ko'nikmalar, kadrlarning yuqori kasbiy mahoratidan foydalangan holda mehnat faoliyati bo'lib, zamonaviy matolarda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish orqali katta samara foydaga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Abduxalimovna, A. Z., & Nabiyeovich, I. I. (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(11)
2. Федоров С.И. Кластерная политика и инновационная активность промышленных предприятий / Вестник Московского университета. Серия 6. Экономика. 2021. № 4. С. 161–185
3. Агафонов В.А. Региональные инновационные кластеры / Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. 2015. №3(43).
4. Валитова Л.А., Шарко Е.Р., Шерешева М.Ю. Выделение промышленных кластеров на основе анализа бизнессвязей: пример текстильной отрасли / Управленец. 2021. Т. 12, № 4. С. 59–74
5. Шаповалова Е.Б. Кластеры в текстильной и легкой промышленности Российской Федерации / Наука и бизнес: пути развития. 2020. № 5 (107). С. 49– 52.

MUNDARIJA TABLE OF CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ		
1.	FAKTORIALLAR HAQIDA TUSHUNCHA VA ULARNING TURLARI Musayev Sardor Xabibulla o'g'li Asadullayeva Mavluda Asadullo qizi	3
2.	YUZA TUSHUNCHASINING KIRITILISHI HAQIDA Abjalilov Sanaqul Xo'jamovich Abjalilov Botir Xo'jamovich Arzikulova Marjona Hasan qizi	9
3.	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI PSIXOLOGIYASINING DIQQATGA TA'SIRI VA ULARDA DIQQATNI JAMLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR Bobonazarova Nodira Oktambekovna Toxirova Maryam	15
4.	ADABIYOT QOIDALARI"DAGI ADABIY TUR VA JANRLAR NASIBA NOROVA	19
5.	"Devonu lugotut-turk" asarida "do'st" konsepti Durdona MUTALIPOVA	22
6.	DINIY MATNLAR PRAGMATIKASI (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf kitoblari misolida) Xakimova Zulfiyaxon Rashidbek qizi	27
7.	KRIMINOLOGIYADA JINOYATCHILIK KO'RSATKICHLARI Abdullayev Navro'zbek Abdunazar o'g'li	31
8.	4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligidagi hikoyalar ustida ishlashda rolli o'yinlar va dramatizatsiyalardan foydalanish. G'anijonova Maxmudaxon	35
9.	FAXRIYOR SHE'RLARIDA OKKAZIONAL SO'ZLAR Umarova Mohichehra Ilmiy rahbar: H.R.Zakirova	38
10.	TO'QIMACHILIK SANOATIDA KLASSTERLARGA ASOSLANGAN MILLIY IQTISODIYOT Anvarov Sherzodbek Dilmurod o'g'li	44